

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

ESHONQULOV DAVLATJON RAJABBAEVICH

**“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA JALB ETILAYOTGAN XORIJIY
INVESTITSIYALARNI SUG‘URTALASH MASALALARI”**

5A231201 – Sug‘urta ishi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:
dots. Nurullaev A.**

KIRISH.....

**I BOB. O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA JALB ETILAYOTGAN
XORIJIY INVESTITSİYALARNI SUG‘URTALASHNING
NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI.....**

- 1.1 Iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarni sug‘urtalashning nazariy asoslari
- 1.2 Iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarni sug‘urtalashning huquqiy asoslari.....
- 1.3 Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda mavjud risklarni sug‘urtalashning jahon amaliyoti.....

**II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION
LOYIHALAR BILAN BOG‘LIQ RISKLARNI KOMPLEKS
TAHLILI.....**

- 2.1 Investitsion loyihalarni tayyorlash va ekspertizadan o‘tkazish amaliyotining tahlili.....
- 2.2 Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda mavjud risklarni kelib chiqishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili

**III BOB. O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA JALB ETILAYOTGAN
XORIJIY INVESTITSİYALARNI SUG‘URTALASHNI
TAKOMILLASHTIRISH
YO‘LLARI.....**

- 3.1 Iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarni sug‘urtalashni takomillashtirish.....
- 3.2 Iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarni kompleks sug‘urta himoyasini rivojlantirish

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Dissertatsion tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, mamlakatimizning investitsiya siesatining ustivorligi, eng avvalo investitsiyalar, iktisodietni tarkibiy jixatdan kayta kurish va texnik yuksaltirishga, shuningdek korxonalarning asosiy fondlarini modernizatsiya kilish va kayta kurollantirishga yunaltirilganligi bilan izoxlanadi. SHu bilan bir katorda investitsion loyixalarni moliyalashtirishda yukori darajada ekspertiza kilinishi, texnik iktisodiy asosi, sifatli taerlanishi vaxolanki investitsiya loyixalarini moliyalashtirishning samarali usullari, mexanizmlari va vositalarini izlab topish bilan boglikdir. Birok mamlakatimizda investitsion loyixalarni moliyalash faoliyatini olib borishda bir kancha kiyinchilik va muammolarga duch kelmokda. Ayniqsa Respublikamiz miqyosida aynan investitsion loyixalarni moliyalashda yuzaga keladigan risklar va ularni sug‘urtalash usullari qoniqarli darajada emas.

SHunday ekan xozirgi kunda ushbu muammoning respublikamiz iktisodiyoti rivojiga tuskinlik kilaetgan salbiy omillaridan biri ekanligini inobatga olgan xolda uning echimlarini kidirish nakadar dolzarb masala ekanligi mavzuning bugungi kundagi axamiyatini belgilab beradi. Buning boisi shundaki, respublikamizda investitsion loyixalarni moliyalashtirishda mavjud risklarni boshkarishni samaradorligi pastligi vaxolanki risklarni boshkarishda sug‘urtalash usullari to‘laqonli tadbiiq etilmayotganligi, bu holat, ayniqsa investitsiya xatarini boshkarishni tashkil kilishdan ko‘riladigan samara, xatarlar tasnifiga karab, ularning guruxlarga teng taksimlanmaetganligidir.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda yuzaga keladigan mavjud risklarni sug‘urtalash usullaridan foydalanish keng tarqalgan bir sharoitda, respublikamizda, mazkur usullardan yukori darajada foydalanilmayapti.

YUqorida bayon etilgan muammolarning mavjudligi va ularni hal etishning zarurligi ushbu dissertatsion tadqiqot mavzusiinng dolzarbligini belgilaydi.

Ilmiy ishning maqsadi. Tadqiqotning bosh maqsadi bo'lib, respublikamizda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda mavjud risklarni sug'urtalashni atroflicha tahlil etish va shu asosda uni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun dissertatsion tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda mavjud risklarni sug'urtalash usullarini takomillashtirish;
- Investitsion loyihalarni moliyalashda mavjud risklar va ularni turlari xamda xisoblash va atroflicha taxlil qilish;
- Investitsion loyihalarni moliyalashda yuzaga kelaetgan muammolarni oldini olish xamda bunda risklarni teng taksimlash usullarini kurib chikish va ular bo'yicha amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.
- investitsion loyihalarni moliyalashda mavjud risklarni boshqarishning nazariy asoslarini tadqiq qilish;
- investitsion loyihalarni moliyalashtirishda mavjud risklarni sug'urtalash bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammolarni aniqlash;
- risklarni boshqarish bilan bog'liq bylgan asosiy muammolarni hal qilish yuzasidan amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti. Dissertatsion tadqiqotning ob'ekti bo'lib, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda mavjud risklar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib esa, sug'urtalash usullari hisoblanadi.

Ilmiy ishning nazariy va metodologik asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiyotni yuksalishida investitsiya faolyatini isloh qilish va iqtisodiyotdagi rolini oshirishga bag'ishlangan ilmiy risolalari hamda O'zbekistonlik va xorijlik iqtisodchi olimlarning risklarni boshqarishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari hisoblanadi.

SHuningdek, dissertatsion tadqiqotni bajarish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlaridan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarorlaridan, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sugurta kompaniyalarining ichki meyoriy xujjatlaridan va ma'lumotlaridan keng ko'lamda foydalanildi.

Dissertatsion tadqiqotning **ilmiy yangiligi** aniqroq tarzda quyidagilarda namoyon bo'ldi:

- investitsion loyixalarni moliyalashtirishda mavjud risklarni paydo bo'lishi, tabiati ilmiy tadqiq qilindi va ularni sug'urtalashning zarurligi asoslandi;

- respublikamizda investitsion loyixalarni moliyalashda mavjud risklarni boshqarishning, jumladan, sug'urtalash usullarini amaldagi holati tahlil qilindi va bu borada mavjud bo'lgan bir qator tendensiyalar aniqlab berildi;

- mamlakatimizda investitsion loyixalarni moliyalashtirishda mavjud risklarni kompleks sug'urtalash bo'yicha dastur ishlab chiqish lozimligi taklif etildi;

- mamlakatimizda investitsion loyixalarni moliyalashtirishda mavjud risklarni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammolarni hal qilish yuzasidan amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi. Investitsion loyixalarni moliyalashdagi mavjud risklarni sug'urtalash yo'li bilan ularning turli xil xatarlardan saqlanishni ta'minlash xususidagi taklif ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan alohida amaliy takliflar respublikamizda investitsion loyixalarni moliyalashtirishda mavjud risklarni sug'urtalash usullarini xamda samaradorligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishda, ishlab chiqarish amaliyotida qo'llanilishi mumkin.

Ilmiy ishning tarkibi. Dissertatsiya ishi kirish qismi, uch asosiy bob, xulosa qismi, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan hamda ilovalardan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari asoslab berilgan.

Ilmiy ishning birinchi bobida Iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashning nazariy va huquqiy asoslari tadqiq qilingan.

Tadqiqot jarayonida asosiy e'tibor risklarni, boshkarish nazariyalarining tahliliga qaratilgan.

Ilmiy ishning ikkinchi bobida Uzbekiston respublikasida investitsiya loyixalar bilan bog'lik risklarni kompleks taxlili hamda amaldagi holati tahlil qilingan va tegishli xulosalar shakllantirilgan, muhim tendensiyalar aniqlab berilgan.

Ilmiy ishning uchinchi bobida iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashni takomillashtirishning asosiy yunalishlari mohiyati ochib berilgan va sug'urta ximoyasi yuzasidan amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ilmiy ishning xulosa qismida tadqiqotni bajarish jarayonida shakllantirilgan xulosalar va ishlab chiqilgan amaliy takliflar va tavsiyalarning qisqacha mazmuni o'z ifodasini topgan.

I BOB. O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA JALB ETILAYOTGAN XORIJIY INVESTITSİYALARNI SUG'URTALASHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

1.1 Iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashning nazariy asoslari

Bozor iqtisodiyoti sharoitda faoliyat yuritish har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun muayyan tavakkalchilikni yuzaga keltiradi. Zero, qaerda bozor bo'lsa, albatta, u erda tavakkalchilik mavjud bo'ladi. Tavakkalchilik asosida foyda olish uchun harakat qilish tadbirkorlik faoliyatining bosh mezonidir. Keskin raqobat sharoitida faoliyat yuritish, bozor talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish mos ravishda mavjud

texnologiyalarni muntazam takomillashtirib borishni, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishni, amaldagi texnik qurilmalarni modernizatsiya qilishni taqozo etadi. SHubhasiz, bunday ishlarni amalga oshirish tegishli investitsion loyihalarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish uchun katta pul mablagʻlari zarur boʻladi. Ayrim mualliflarning yozishicha “bozor iqtisodiyotiga oʻtishda namoyon boʻladigan eng markaziy muammolardan biri davlat va korxona miqyosida cheklangan moliyaviy resurslardan samarali foydalanishning aniq mexanizmini loyihalarni tahlil etish bilan bogʻliq xorijiy uslubiyotni hisobga olgan holda ishlab chiqishdan iboratdir”¹.

Investitsion loyihalarni amalga oshirish bir qancha murakkab bosqichlardan iborat boʻlib, unda mazkur loyihalarni moliyalashtirish markaziy oʻrinni egallaydi. Oʻzbekiston Respublikasida investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat:

- Davlat byudjeti mablagʻlari.
- Tijorat banklari kreditlari.
- Korxonani oʻz mablagʻlari.
- Boshqa mablagʻlar.

Investitsion loyihalar yuridik, jismoniy shaxslar yoxud hukumat buyurtmasi asosida ixtisoslashgan loyiha tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladi va yuqorida koʻrsatib oʻtilgan manbalar hisobidan moliyalashtirilishi mumkin. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida turli risklar paydo boʻladi va ularni oldini olish, bir soʻz bilan aytganda risklarni boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda mavjud risklarni batafsil ilmiy tadqiq etishdan oldin “risk” tushunchasiga toʻxtalib oʻtishni joiz deb bilamiz.

Risk tushunchasi iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi. Ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda riskga boshqacha bir nazar bilan qaralsa, qonunchilik hujjatlarida boshqa jihatdan qaraladi. Qizigʻi shundaki, risk qanday koʻrinishda talqin etilmasin, uning roʻy berishi muayyan miqdorda zarar

1 Анализ и управление проектами. Учебник под ред. Н.Артыкова. – Т.: 2000 г.-с.4.

keltirishi hamma olimlar va mutaxassislar tomonidan tan olinadi. CHunonchi, risk tushunchasi «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi Qonunda «tavakkalchilik», Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining sugʻurtaga oid 52-bobida «tavakkalchilik» va «xavf-xatar» deb taʼkidlangan. I.f.d., prof. H.R.Sobirov ham riskni «xavf-xatar» sifatida talqin etadi². Risk tushunchasini tahlil etar ekanmiz, bu atama i.f.d., prof. SH.Abdullaevaning «Bank risklari va kreditlash» kitobida mufassal yoritilganligining guvohi boʻlamiz. Ushbu ilmiy asarda «risk» tushunchasi turli olimlarning qarashlari asosida ilmiy tahlil etiladi va bunda prof. SH.Abdullaevaning fikricha «riskni» «xavf-xatar» tushunchasidan farqlash zarur. «Xavf-xatar deganda,-deb yozadi i.f.d., prof. SH.Abdullaeva,-biz oldindan biron salbiy natija beruvchi yoki biron bir salbiylikka yoki zarar, talofatga olib keluvchi jarayon mavjudligini bilamiz.... xavf-xatar birlamchi, risk ikkilamchi»³. Darhaqiqat, xavf-xatarni oldini olish va uni bartaraf etish uchun risk qilamiz. Iqtisodchi olim I.T.Balabanov: «Risk-bu moliyaviy kategoriyadir. Risk miqdorini kamaytirish diversifikatsiya, limitlashtirish, oʻz-oʻzini sugʻurtalash va sugʻurtalash kabi moliyaviy usullar yordamida amalga oshiriladi»⁴, -deb hisoblaydi.

Xalqaro amaliyotda «Risk-menejment» degan atama tez-tez ishlatilib turiladi. Yirik sanoat ishlab chiqarish konsernlari va kompaniyalari oʻz tarkiblarida risklarni boshqarish bilan shugʻullanadigan boʻlinmalarga ega. Ular nafaqat, ehtimol tutilgan xavf-xatarlarni oldindan bashorat qilishadi, balki ularni kamaytirish, oldini olish va cheklash boʻyicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqadilar. Bu chora-tadbirlarni amaliyotga tatbiq etish mazkur kompaniya va konsernlarni raqobat sharoitida barqaror faoliyat koʻrsatishini taʼminlaydi.

I.f.d., prof. I.T.Balabanov risk haqida oʻz fikrini davom ettirib shunday yozgan edi: “insoniyat faoliyati turlari va tabiatning u yoki bu vaqeliklarini oʻziga xosligidan kelib chiquvchi yoʻqotishlarning ehtimoliy xavfi risk

² Собиров Х.Р. Суғурта: 100 савол ва жавоб. – Т.: «Меҳнат», 1998 йил 35-бет.

³ Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. - Т.: “Молия” нашриёти, 2002 йил, 61-б.

⁴ Балабанов И.Т. Риск-менеджмент. - М.: “Финансы и статистика”, 1996 г. 3-б.

tushunchasini anglatadi”⁵. Risk - bu iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Bu borada i.f.d., prof. SH.Abdullaeva quyidagi fikrlarni bayon etadi: “iqtisodiy kategoriya sifatida u biron hodisaning, vaqelikning amalga oshishi yoki oshmasligini ifoda qiladi. Riskning bo‘lishi uch xil natijani berishi mumkin: salbiy hol (zarar), o‘zgarishsiz (nollik), ijobiy (foyda) bo‘lishi mumkin”⁶.

Turli choralar ko‘rish yo‘li bilan riskli hodisa ro‘y berishini bashorat qilish va uning darajasini kamaytirish, ya’ni riskni boshqarish mumkin. Riskni samarali boshqarish ko‘p jihatdan uni to‘g‘ri tasniflashga bog‘liq. Riskni ilmiy asoslangan holda tasniflash umumiy risk tizimida har bir riskning o‘rnini aniqlash imkoniyatini beradi. Bu o‘z navbatida har bir riskga mos keluvchi boshqaruv uslubini qo‘llashga shart-sharoit yaratadi. Risklarni ehtimol tutilgan natijasiga ko‘ra ikkita katta guruhga ajratish mumkin.

- sof risklar.
- sun‘iy risklar.

Sof risklar salbiy yoki o‘zgarishsiz (nollik) natijalar olish ehtimolini bildiradi. Bunday risklarga quyidagilarni kiritish mumkin: tabiiy, siyosiy, transport va tijorat risklarining bir qismi (mulkiy, ishlab chiqarish va savdo).

Sun‘iy risklar yuz berishi ham salbiy, ham ijobiy natija olish ehtimolini ifodalaydi. Bunday risklarga tijorat riskining bir qismi bo‘lgan moliyaviy risklar kiradi. Risklar paydo bo‘lish sabablariga ko‘ra tabiiy, ekologik, siyosiy, transport va tijorat risklariga bo‘linadi. Tabiiy risklar tarkibiga zilzila, suv toshqini, bo‘ron, chaqmoq urishi, yong‘in va har xil yuqumli kasalliklarni kiritish mumkin. Atrof-muhitni ifloslanishi bilan bog‘liq risklar ekologiya risklarini tashkil etadi. Masalan, orol dengizida suv hajmining keskin kamayib ketishi orol bo‘yi mintaqasida istiqomat qiladigan aholi sog‘ligiga salbiy ta’sir ko‘rsatyapti.

Siyosiy risklar bevosita hukumat tomonidan urush holatlarini e’lon qilinishi, harbiy harakatlar, fuqarolar g‘alayonlari, ish tashlashlar, davlat

⁵ Ўша асар. 21-б.

⁶ Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. - Т.: “Молия” нашриёти, 2002 йил, 69-б.

tuzumining o'zgarishi, qonunchilik hujjatlarining o'zgarishi natijasida zarar ko'rishni anglatadi. Siyosiy risklardan farqli ravishda tijorat risklari moliyaviy-xo'jalik faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziyon ko'rish xavfini bildiradi.

Tijorat risklari mulkiy, ishlab chiqarish, savdo va moliyaviy risklarni o'z ichiga oladi. Mulkiy risklar deganda o'g'irlik, diversiya, sovuqqonlik va texnologik tizimlarning ishdan chiqishi natijasida vujudga keladigan risklar tushuniladi. Turli omillarni ta'siri ostida, dastavval, asosiy va aylanma fondlarni nobud bo'lishi va zararlanishi oqibatida ishlab chiqarishni to'xtat qolishi tufayli ziyon ko'rish bilan bog'liq risklar ishlab chiqarish risklari deyiladi. Moliyaviy risklar moliyaviy resurslarni yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq risklarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, likvidlilik, boy berilgan foyda bilan bog'liq risklar ham mavjud.

SHuningdek risklarni ro'y berishini oldini olish, bartaraf etish va kamaytirishda ularni boshqarish alohida ahamiyatga molik. YUqorida qayd etganimizdek, risklarni boshqarish tizimi chet mamlakatlarda «risk-menejment» nomi bilan mashhurdir. Rus olimi I.T.Balabanovning fikricha «risk-menejment moliyaviy menejmentning bir qismidir»⁷. Risk-menejment deganda, muayyan riskni aniqlash, bashorat qilish, oldini olish va uni kamaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi. Taniqli olim N.V.Xoxlov risk-menejment haqida shunday yozadi: «Risklarni boshqarish – bu ko'p pog'onali jarayon bo'lib, uning asosiy maqsadi ko'ngilsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ob'ektga shikast etganda ko'rilgan zararlarni qoplash va kamaytirishdan iborat»⁸. Risklarni boshqarish yoki boshqacha aytganda risk-menejment bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

- Riskni tahlil etish.
- Risklarni taqqoslama samaradorligini baholashda unga ta'sir etuvchi metodlarni tanlash.

⁷ Балабанов И.Т. Риск-менеджмент. - М.: "Финансы и статистика", 1996 г. 41-б.

⁸ Хохлов Н.В. Управление риском. – М.: «ЮНИТИ», 2001 г. стр. 16.

- Qaror qabul qilish.
- Riskka bevosita ta'sir ko'rsatish.
- Nazorat va boshqaruv jarayoni natijalarini ixchamlashtirish.

Riskni tahlil etish risk-menejmentda boshlang'ich bosqich bo'lib, u risk xususiyatlari va tuzilishi to'g'risida muayyan ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Tahlil natijasida olingan ma'lumotlar keyingi bosqichlarda riskni boshqarish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish uchun asos bo'ladi.

1.2 Iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashning huquqiy asoslari

O'zbekistonda iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashning o'ziga xos huquqiy asoslari yaratilgan. SHuningdek investitsion loyihalarni moliyalashtirish faoliyati boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatiga qaraganda nisbatan riskka ta'sirchan bo'ladi. Turli risklar, xususan, foizlarning o'zgarishi, kreditning o'z vaqtida bankka qaytarilishini ta'minlash va boshqa shunga o'xshash loyihaviy risklar doimo investitsion loyihalarni mablag' bilan ta'minlovchi tashkilotlarning, birinchi navbatda tijorat banklarining moliyaviy barqaror faoliyat ko'rsatishiga salbiy ta'sir ko'rsatib keladi. Bu fikrni tasdiqlash maqsadida i.f.d., prof. SH.Z.Abdullaevaning quyidagi fikrlarini keltirishni o'rinli deb hisoblaymiz: «Zamonaviy bank tizimini risksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bankning risksiz operatsiyasi yo'q, uning barcha operatsiyalari risk bilan bog'liq bo'lib, ularning darajasi operatsiya turiga qarab har xil bo'lishi mumkin»⁹. Rus iqtisodchisi V.A. Gamzaning ta'kidlashicha «bank risklarini o'rganish bank xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda hal etuvchi axborot negizi bo'lib hisoblanadi»¹⁰.

SHuni alohida qayd etish kerakki, investitsion loyihalarni moliyalashda mavjud risklar tushunchasi ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda har xil nuqtai nazardan

⁹ Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. - Т.: "Молия" нашриёти, 2002 йил, 85-б.

¹⁰ Гамза В.А. Методологические основы системной классификации банковских рисков. - журнал «Банковское дело», №6 2001 г. стр.25.

ta'riflanadi. Jumladan, olimlar G.S.Panova bunday riskga quyidagicha ta'rif beradi: «risk - noqulay hodisalarning yuz berishi natijasida yo'qotish xavfi yoki ehtimoli»¹¹.

Investitsion loyihalarni moliyalash faoliyatida yuzaga keladigan risklarni tabiatini o'rganish bo'yicha keyingi yillarda bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Investitsion loyihalarni moliyalash risklari va ularni vujudga kelish sabablari rossiyalik olimlar Sokolinskaya N.E., i.f.d., prof. Lavrushin I.O., Osipenko T.V., Gamza V.A. va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. SHu erda O'zbekistonlik olimlar i.f.d., prof. SH.Z.Abdullaeva, i.f.n. Mahmudaloeva G'. va boshqalar investitsion loyihalarni moliyalashda mavjud risklar haqida yirik ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Investitsion loyihalarni moliyalashda yuzaga keladigan risklarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- Kredit riski.
- Operatsiya riski.
- Huquqiy risk.
- Mamlakat riski.
- Transfert riski.
- Bozor riski.
- Foiz riski.
- Likvidlilik riski.
- Reputatsiya riski.
- Siyosiy risklar.
- Tadbirkorlik risklari.

YUqorida qayd etilgan risklarni sug'urtalash investitsion loyihalarni moliyalash chog'ida paydo bo'lgan risklarni sodir bo'lishi natijasida etkazilgan zararlarni qoplashning samarali vositasi hisoblanadi.

¹¹ Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: «ДиС», 1997 г. стр. 186.

Sugʻurta fuqarolar va korxonalarning mulkiy va shaxsiy nomulkiy manfaatlarini himoya etuvchi samarali vosita sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud boʻlgan. Bizgacha etib kelgan manbalarga qaraganda, dastlabki sugʻurta shartnomalari bundan yil muqaddam qadimgi Vizantiya erlarida paydo boʻlgan. Baʼzi olimlar, xususan, i.f.d., prof. Sobirov H.R. sugʻurtaning vujudga kelishi bilan bogʻliq muammoga oʻz munosabatini bildirib shunday yozadi: «Sugʻurta tushunchasi pul va kredit tushunchalaridan oldin shakllana boshlagan. Dastlabki jamoa tuzumi davrida har bir oila hayot uchun eng zarur oziq-ovqat zahiralari gʻamlash zaruriyatini tushuna boshlaganda, zahiralar etarli boʻlmasa yoki biror hodisa tufayli qoʻshimcha moddiy neʼmatlarga ehtiyoj sezilsa, qoʻshnilardan qarz olingan, buzilgan imoratlar hashar yoʻli bilan tiklangan»¹². Toʻgʻri, sugʻurta himoya vositasi sifatida pul va kredit tushunchalaridan oldin paydo boʻlgan boʻlishi mumkin. Sugʻurta zahiralari natura shaklida shakllangan. Bu ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Chunki, zahiralarni natura shaklida jamgʻarish ularni uzoq muddat saqlash imkoniyatini bermagan.

Tovar-pul munosabatlarini paydo boʻlishi sugʻurta zahiralari pul koʻrinishida shakllantirishga zamin yaratgan. Maʼlumki, pulning asosiy funksiyalaridan biri toʻlov vazifasini bajarishidir. Pulning paydo boʻlishi munosabati bilan sugʻurta zahirasi yigʻiladigan sugʻurta badallari pul koʻrinishida toʻlanadigan boʻlgan. Hozirgi kunda sugʻurta zahiralari faqat pul koʻrinishida shakllantiriladi, xuddi shunday sugʻurta mukofotlari ham pul koʻrinishida toʻlanadi. Sugʻurta mukofoti-bu sugʻurta tashkilotiga toʻlanadigan xizmat haqidir.

Sugʻurta mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida pul munosabatlari tizimida muhim oʻrin tutadi. U moliya, kredit kabi iqtisodiy kategoriyalar bilan chambarchas bogʻliqdir. Moliya yalpi ichki mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida vujudga keladigan maqsadli pul fondlarini shakllanishi va

¹² Собиров Х.Р. Ўзбекистон суғурта тарихидан. – «Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси» журналі, 2000 йил №10, 57-б.

undan foydalanish bilan bog‘liq pul munosabatlarini ifodalasa, kredit – aholi, korxona va tashkilotlar ixtiyoridagi vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni jalb etish va undan foydalanish bilan bog‘liq pul munosabatlari yig‘indisidir. Sug‘urta oldindan ko‘rib bo‘lmaydigan tabiiy, stixiyali hodisalar ro‘y berishi natijasida ko‘riladigan zararlarni qoplash bilan bog‘liq maqsadli pul fondlarini shakllanishi va undan foydalanish bo‘yicha pul munosabatlari yig‘indisidir.

Ilmiy va iqtisodiy adabiyotlarda sug‘urtaning iqtisodiy mohiyatini yoritishda turlicha yondoshuvlar mavjud ekanligini uchratish mumkin. Masalan, i.f.d., prof. H.R.Sobirov sug‘urta tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: «ko‘pchilik adabiyotlarda sug‘urta so‘zi xavf-xatar, dahshat, vahima ma’nosida ishlatiladi, chunki ko‘rsatilgan tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalar natijasida jamiyat hayotiga moddiy zarar etkaziladi. Lekin sug‘urta deganda ana shu ruhiy holatlar emas, balki bular orasida vujudga kelgan va paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda zararlari va ularni kuchini qirqishga qaratilgan tadbirlar, zarar natijasida vujudga kelgan kamomadning o‘rnini to‘ldirish, bu yo‘nalishda yuzaga keladigan sug‘urtalovchi tashkilotlar va sug‘urtalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlar ko‘zda tutiladi»¹³. Bizning fikrimizcha, bu erda keltirilgan ta’rif sug‘urtaning iqtisodiy mohiyatini to‘liq ochib berolmaydi. Buning ustiga i.f.d., prof. H.R.Sobirov tomonidan yuqorida berilgan ta’rif uzundan-uzoq bo‘lib, sug‘urtaning mohiyatini tezda ilg‘ab olishni qiyinlashtiradi. 2002 yilning 5 aprelida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunning 3-moddasida shunday deyiladi: «Sug‘urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to‘laydigan sug‘urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan vaqea (sug‘urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovonini (sug‘urta pulini) to‘lash yo‘li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi»¹⁴. Sug‘urta tushunchasiga berilgan bu ta’rif iqtisodiy nuqtai nazardan emas, balki yuridik jihatdan ahamiyatli ekanligini ta’kidlash o‘rinlidir.

¹³ Собиров Х.Р. Суғурта: 100 савол ва жавоб.-Т.: «Мехнат» нашриёти, 1998 йил 8-9-бетлар.

¹⁴ «Суғурта фаолияти тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Қонуни.-«Халқ сўзи» газетаси, 2002 йил 28 май.

Rossiyalik iqtisodchi prof. B.YU.Serbinovskiy fikricha: «sugʻurta –yuridik va jismoniy shaxslar toʻlaydigan sugʻurta badallari (mukofotlari)dan shakllanadigan pul fondlari hisobidan muayyan vaqea (sugʻurta hodisasi) roʻy berganda ushbu shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish boʻyicha munosabatlar tizimidir»¹⁵. Ammo shuni yoddan chiqarmaslik zarurki, sugʻurta nafaqat yuridik yoki jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya etuvchi vosita, balki jismoniy shaxslarning hayotiga, sogʻligiga baxtsiz hodisalar sodir boʻlishi natijasida shikast etkazilganda ularga sugʻurta summalarini berish yoʻli bilan himoya etuvchi vositadir. SHu bois, prof. B.YU. Serbinovskiy bergan taʼrifni ham toʻliq deb boʻlmaydi. YAna bir iqtisodchi olim N.V.Bendina sugʻurtaning iqtisodiy mohiyatini ochib berish maqsadida quyidagilarni taʼkidlaydi: «yuridik va jismoniy shaxslar zarar koʻrganda koʻrilgan zararni koʻpchilik shaxslar oʻrtasida taqsimlash orqali uni qoplash usulidir»¹⁶. Ushbu olimaning fikri bir jihatdan eʼtiborni oʻziga tortishini eʼtirof etish joiz. Darhaqiqat, sugʻurta fondi koʻpchilik jismoniy va yuridik shaxslarning toʻlaydigan sugʻurta mukofotlari hisobiga shakllanib, ushbu fondni shakllantirishda ishtirok etgan shaxslarning mulkiy manfaatlariga tabiiy hodisalar roʻy berishi natijasida zarar etganda, ushbu fondan sugʻurta qoplamasi beriladi. Lekin, hammaga emas. YAna bir marta taʼkidlash lozimki, faqat shu fondni tashkil etishda qatnashgan shaxslargagina beriladi. YAʼni, bir shaxs koʻrgan zarar koʻpchilik oʻrtasida taqsmilanadi. SHu maʼnoda, N.V.Bendina tomonidan berilgan taʼrif sugʻurtaning iqtisodiy mohiyatini qisman yoritib bera oladi, deb ayta olamiz. Bunga oʻxshash taʼriflarni koʻplab keltirish mumkin. SHu bilan bir qatorda, ularning hammasida baʼzi bir kamchiliklarni koʻrish mumkin. Bizning fikriizcha, sugʻurta deganda stixiyali va boshqa tabiiy hodisalar roʻ berishi natijasida yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki va sogʻligiga zarar etkazilganda, bu zararlarni qoplashga moʻljallangan maxsus maqsadli pul

¹⁵ Сербиновский Б.Ю. Страховое дело. – М. «Феникс», 2000 г. 7 стр.

¹⁶ Бендина Н.В. Страхование. – М.: «Приор», 2000 г. стр. 3.

fondlarini shakllanishi va undan foydalanish bilan bog‘liq pul munosabatlari yig‘indisi tushuniladi.

Sug‘urtaning iqtisodiy mohiyatini teran anglash uchun unga xos bo‘lgan, ya’ni sug‘urtani iqtisodiy kategoriya sifatidagi fundamental prinsiplarini bilish muhim ahamiyatga ega. Sug‘urta iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- Sug‘urta riskining mavjudligi. Risk bo‘lmasa sug‘urtalashga hojat qolmaydi. Risk – sug‘urtaviy pul munosabatlarining asosini tashkil etadi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning va fuqarolarning hayotiga turli risklar doimo ta’sir ko‘rsatib turadiki, bu o‘z navbatida ushbu risklarni ro‘y berishi natijasida yuzaga keladigan ehtimol tutilgan zararlardan himoyalaniş zaruriyatini keltirib chiqaradi. Risklarning yuz berishi tasodifiylik xarakteriga ega va u inson ongiga bog‘liq bo‘lmaydi. Risklar va ularning namoyon bo‘lish shakllari haqida ushbu dissertatsiyaning birinchi bobi ikkinchi paragrafida atroflicha to‘xtalib o‘tiladi.

- Sug‘urta munosabatlarining qayta taqsimlash xarakteriga ega ekanligi. Gap shundaki, sug‘urta iqtisodiy kategoriyasi yordamida korxonalar va aholi daromadlarining bir qismi qayta taqsimlanadi. Moliya kategoriyasidan farqli ularoq, sug‘urta yalpi ichki mahsulotni birlamchi taqsimlanishida ishtirok etmaydi, balki ikkilamchi taqsimlanishida ishtirok etadi. Korxonalar va aholi daromadlari bir qismini qayta taqsimlanishi natijasida qat’iy maqsadli yo‘nalishda foydalaniladigan sug‘urta fondi shakllanadi. Bu xususiyat sug‘urtani moliya kategoriyasi tushunchasiga mos kelishini bildiradi.

- Zararlarni muayyan makon va zamonda taqsimlanishi. Zararlarni hududlararo taqsimlash ob’ektlarni sug‘urtaga olish etarli darajada qamrab olinganda ro‘y beradi. Zararlarni ma’lum bir vaqtda taqsimlash sug‘urta hodisalarning notekis sodir bo‘lishi bilan tushuntiriladi. Haqiqatan ham bir paytda barcha ob’ektlarni o‘z ichiga oluvchi sug‘urta hodisasi yuz berishi amri mahol. Tajribaning ko‘rsatishicha, sug‘urta hodisalari muayyan bir davrda ro‘y bermasligi, ammo boshqa yili ro‘y berishi mumkin. SHuning uchun, sug‘urta

tashkilotlari o'z zimmlariga olingan majburiyatlarni bajarish maqsadida etarli miqdorda sug'urta fondiga ega bo'lishi darkor.

- Sug'urta mukofotlarining qaytarilish xarakteriga ega ekanligi. Sug'urta mukofotlari hisobidan shakllangan sug'urta fondidagi mablag'lar faqat sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urtalanuvchiga qaytarilib beriladi. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyatini anglatuvchi bu prinsip sug'urtani iqtisodiy kategoriya sifatida kredit tushunchasiga yaqinlashtiradi. Kreditning asosiy prinsiplaridan biri - ajratilgan kreditlarning o'z vaqtida bankka qaytarilishidir.

YUqorida bayon etilgan prinsiplar jamlamasi sug'urtaning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatini ochib beradi.

Sug'urtaning iqtisodiy tabiati uning funksiyalarida o'z aksini topadi. Moliya, kredit kabi iqtisodiy kategoriyalar bilan bir qatorda sug'urta ham bir qator funksiyalarni bajaradi. Ta'kidlash lozimki, iqtisodiy adabiyotlarda sug'urtaning funksiyalari bir necha ko'rinishda talqin etiladi. Masalan, i.f.d., prof. V.M.Rodionova rahbarligida chop etilgan «Finanso'» o'quv qo'llanmasida sug'urta ikkita funksiyani bajarishi ko'rsatib o'tilgan. Bu funksiyalar quyidagilardan iborat: qayta taqsimlash va nazorat funksiyasi¹⁷. I.f.d., prof. H.R.Sobirov sug'urta quyidagi funksiyalarni bajarishini qayd etadi: «xavf-xatar; ogohlantirish; investitsiya; omonot; axborot»¹⁸.

Ko'rinib turibdiki, prof.H.R.Sobirov sug'urtaning 5 ta funksiyaga ega ekanligini qayd etadi. Biz prof. H.R.Sobirovning fikriga to'liq qo'shila olmaymiz. Fikrimizcha, bu funksiyalarning ba'zilar tegishli bahs-munozarani talib etadi. Xususan, sug'urtaning investitsiya funksiyasi. Fikrimizcha, investitsiya – sug'urta tashkilotlari uchun funksiya emas, balki asosiy sug'urta faoliyatiga qo'shimcha ravishda amalga oshiriladigan faoliyatdir. Investitsiyasiz ham sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Ammo, sug'urta tashkilotlari vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini investitsiya qilish orqali qo'shimcha daromad oladi. Funksiya doimiylik xarakteriga ega va u

¹⁷ Финансы. Учебник. Под ред. проф. Родионовой В.М. – М.: «Банковский-биржевой консультационный центр», 1992 г.

¹⁸ Собиров Х.Р. Суғурта: 100 савол ва жавоб. – Т.: «Меҳнат», 1998 йил 16-бет.

o'zgarmasdir. Sobiq sovet hokimiyati davrida davlat sug'urta organlarining mablag'lari investitsiya qilinmas edi. Bozor munosabatlariga o'tish munosabati bilan sug'urta tashkilotlarida investitsiya faoliyati bilan shug'ullanishga imkoniyat to'g'ildi. SHuning uchun biz investitsiyani sug'urtaning funksiyasi bo'la olmaydi, deb tasdiqlashimiz mumkin.

Ayni shunday fikrlarni axborot funksiyasi haqida ham gapirish mumkin. Sug'urtalanuvchilarga sug'urta tashkilotlari haqida ma'lumot berish bu sug'urtaning axborot funksiyasi mavjudligini anglatmaydi. Sug'urta tashkilotlarining tijorat siriga kiruvchi ma'lumotlari umuman axborot sifatida berilmaydi. Sug'urtaga axborot funksiyasi xosligi unchalik ham o'z isbotini topmagan.

Bizning fikrimizcha, sug'urta quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Sug'urta fondini tashkil etish bilan bog'liq funksiya.
- Sug'urta fondidan foydalanish bilan bog'liq funksiya.
- Nazorat funksiyasi.

YUqorida qayd etilgan funksiya sug'urta faoliyatida doimiy hisoblanadi va har qanday sharoitda o'zgarmasdir. Sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun, albatta, sug'urta tashkilotida etarli miqdorda pul mablag'lari fondi bo'lishi lozim. Agar, sug'urtalovchi pul fondini, ya'ni sug'urta fondini tashkil etmasa, uning moliyaviy ahvoli murakkablashishi mumkin. Tashkil etilgan sug'urta fondining mablag'lari qat'iy maqsadli xarakterga ega bo'lib, u faqat sug'urta hodisalari ro'y berganda qoplama berish uchun ishlatiladi. Sug'urta fondining mablag'larini boshqa maqsadlarda ishlatish mumkin emas. Sug'urta fondi mablag'lari davlat tomonidan olib qo'yilishi va soliqqa tortilishi mumkin emas.

Sug'urta xizmatlari ixtiyoriy va majburiy shakllarda amalga oshiriladi. Ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha xizmatlar jismoniy va yuridik shaxslarga ularning roziligi bilan ko'rsatiladi. Ixtiyoriy sug'urta turlariga yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki sug'urtasini, transport vositalari sug'urtasi, hayot sug'urtasi, moliyaviy va tadbirokorlik risklari sug'urtasini misol tariqasida keltirish mumkin. Ixtiyoriy sug'urtadan farqli ravishda majburiy sug'urta

qonunchilik hujjatlariga asosan o'tkaziladi va bunda ko'rsatilgan yuridik va jismoniy shaxslarning manfaati ularning irodasidan qat'iy nazar majburiy o'tkaziladi. Masalan, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi majburiy shaklda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, umumiy foydalanishdagi havo, temir yo'l, avtomobil transportidagi yo'lovchilarning hayoti ham majburiy sug'urta qilinadi. SHu erda alohida ta'kidlash zarurki, majburiy sug'urta turlari bilan bir qatorda majburiy davlat sug'urta turlari ham mavjud. Jumladan, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi harbiy xizmatchilari hayoti baxtsiz hodislardan ehtiyoti shart sug'urta qilinadilar. SHuningdek, Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi xodimlarining hayoti ham majburiy davlat sug'urtasiga olinadilar. Majburiy davlat sug'urtasi bo'yicha sug'urta xizmat haqlari – sug'urta mukofotlari Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati haqida fikr-mulohaza yuritish ekanmiz, sug'urtaning maqsad va vazifalari mustaqillik yillarida tom ma'noda o'zgarganligini ta'kidlash joiz. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida 31 ta sug'urta tashkiloti faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa ulardan 2 tasi hayot sug'urta tarmog'ida.

SHuningdek O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan eng yirik sug'urta tashkilotlari sifatida «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini, «O'zagrosug'urta» va «Kafolat» davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyalarini, «Kapitala sug'urta», «ALSKOM» sug'urta kompaniyasi, «Madad» sug'urta Agentligini keltirish mumkin. Bugungi kunda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalar sifatida «CHARTIS UZBEKISTAN» ma'suliyati cheklangan jamiyati Qo'shma korxonasi sug'urta kompaniyasini qayd etish mumkin.

1.3 Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda mavjud risklarni sug'urtalashning jahon amaliyoti

Xalqaro tajriba shundan dalolat beradiki, investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida vujudga keladigan risklarni sug'urtalash katta samara beradi. Hatto, iqtisodi taraqqiy etgan davlatlarda investitsion loyihalarni nafaqat moliyalashtirish jarayonida, balki uni ishlab chiqishdan to to'liq amalga oshirgungacha bo'ladigan bosqichlar sug'urta himoyasiga olinadi. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda paydo bo'ladigan risklarni sug'urtalashga ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari mavjud. Bunga misol tariqasida Butunjahon bankining MIGA (investitsiyalar bo'yicha ko'p tomonlama agentlik) tashkilotini, Germaniyaning "GERMES" sug'urta agentligini va Fransiyadagi "KOFASE" sug'urta kompaniyasini keltirish mumkin.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishida investitsiyalarning roli beqiyosdir. Investitsiyalarning samaradorligi u bilan bog'liq loyihalarning nechog'li pishiq va puxta ishlab chiqilganligigiga uzviy bog'liq. Ammo tajriba shuni ko'rsatadiki, investitsion loyihalarni ishlab chiqishdan to uni muvaffaqiyatli amalga oshirishgacha bo'lgan jarayonga bir qancha omillar salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ulardan biri loyihalarni ishlab chiquvchi tashkilotlarning uchinchi shaxslarga, ya'ni buyurtmachilarga zarar keltirish xavfidir. Odatda, loyihani ishlab chiquvchilar uni sifati va undagi hisob-kitoblarning asosli hamda to'g'ri ekanligiga javobgar bo'ladi. SHunga ko'ra, etkazilgan zarar loyihani ishlab chiquvchi tomonidan qoplanishi zarur.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida investitsion loyihalarni ishlab chiquvchi tashkilotlarning uchinchi shaxslarga zarar etkazish javobgarligi ixtiyoriy sug'urtalanadi. Sug'urta shartnomasiga muvofiq, sug'urtalovchi investitsion loyihani ishlab chiquvchining kasbiy javobgarligini sug'urta himoyasiga oladi va muayyan hodisa ro'y berganda etkazilgan zararni sug'urtalanuvchi nomidan buyurtmachiga qoplab beradi. Afsuski, bu amaliyot O'zbekistonda qo'llanilmaydi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda yuzaga keladigan xavf-xatarlardan yana biri tijorat banklari tomonidan ajratilgan investitsiya

resurslarini qarz oluvchi tomonidan o'z vaqtida qaytarilish xavfidir. O'zbekistondagi mavjud amaliyotga binoan, Hukumat kafolati ostida mamlakatimizga kiritilgan chet el kreditlari va Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qurilayotgan ob'ektlardagi risklar majburiy sug'urtaga olinadilar. Buni investitsion loyihalar bilan chambarchas aloqadorligi borligini isbotlab o'tirishga hojat yo'q. Ammo, tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilayotgan investitsion loyihalar bo'yicha qarz oluvchilarning kreditlarni o'z vaqtida bankka qaytarish riskini sug'urtasi unchalik ommalashmagan. Bunga asosiy sabab shuki, kredit risklarini sug'urtasi juda risk darajasi yuqori hisoblanadi.

Investitsion loyihalarni amalga oshirishda uni siyosiy risklardan sug'urtalash katta ahamiyatga ega. Chunki, siyosiy risklarni yuz berishi oqibatida investor loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirgan pul mablag'laridan butunlay ajralishi mumkin. Siyosiy risklar jumlasiga harbiy harakatlar, ish tashlashlar, fuqarolar g'alayonlari, davlat hokimiyatini hamda qonunchilik hujjatlarini o'zgarishi kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin. Bizning respublikamizda investitsion loyihalarni amalga oshirish chog'ida ehtimol tutilgan siyosiy risklarni sug'urtalash ishlari bilan "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi shug'ullanadi. SHu o'rinda ta'kidlash lozimki, chet mamlakatlarda siyosiy risklardan sug'urtaviy himoyani ta'minlash bo'yicha yirik va xalqaro nufuzga ega sug'urta kompaniyalari mavjud. Ular sirasiga "Germes", "Kofase" va "SACHE" ni kiritish mumkin.

Investitsion loyihalarni kompleks sug'urtaviy himoyaga olishda tadbirkorlik risklarini sug'urtasi muhim o'rin tutadi. Tadbirkorlik risklari deyilganda, investitsion loyiha asosida maxsulot ishlab chiqarayotgan korxonani to'satdan to'xtab qolishi natijasida kutilgan daromadni ololmaslik riski tushuniladi. SHuningdek, korxona va uning hamkori o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlarini hamkor tomonidan bajarilmasligi natijasida ko'rilgan zarar ham tadbirkorlik risklarini sug'urtalash orqali qoplanishi mumkin.

Investitsion loyiha asosida faoliyat yuritayotgan korxonaning mulkklarini sug'urtalash yuqorida qayd etilgan kompleks sug'urtaning bir

bo'g'ini hisoblanadi. Korxona o'ziga tegishli mol-mulklarini tabiiy ofatlardan, xususan, zilzila, suv toshqini, tuproq ko'chkisi, vulqon otilishi, chaqmoq chaqishi hamda yong'indan sug'urtalasa bu faqat korxonaning foydasiga xizmat qiladi.

Biz yuqorida investitsion loyihalarni ishlab chiqish va uni to'liq amalga oshirishgacha bo'lgan jarayon bir qancha bosqichlarni o'z ichiga olishini va unda turli risklar mavjud ekanligini e'tirof etdik. Sug'urta ana shu jarayonda yuzaga keladigan risklardan himoyalashning samarali vositasi hisoblanadi. SHu bois investitsion loyihalarni amalga oshirishda sug'urta mexanizmidan to'liq foydalanishni taklif etamiz.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish faoliyatida yuzaga keladigan risklardan asosiysi- bu siyosiy risklar hisoblanadi. Jahon amaliyotida investitsion loyihalarni siyosiy risklardan sug'urtalash nisbatan rivojlangan. Siyosiy risklar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Valyuta qonunchiligidagi o'zgarishlar. Bu o'zgarishlar investorlar manfaatiga ziyon etkazishi, pirovardida, investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- Investitsion loyihani moliyalashtirishda ishtirok etayotgan investorlarga tegishli pul mablag'lari va mol-mulklarni davlat ixtiyoriga olib qo'yilishi.

- Soliqqa tortish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilishi. Bu o'zgartirishlar investitsion loyihani moliyalashtirishda ishtirok etuvchi sub'ektlarning foyda olishga qaratilgan harakatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

- Harbiy harakatlar. Bu harakatlar investitsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini bermaydi.

- Fuqarolik g'alayonlari.

Hozirgi paytda investitsion loyihalarni siyosiy risklardan sug'urtalash bo'yicha uchta davlat, ya'ni AQSH, GFR va YAponiya etakchilik vazifasini bajarmoqda. Ularning hissasiga investitsion risklarni sug'urtalash bo'yicha amalga oshirilayotgan jami operatsiyalarning 80 foizdan ziyodi to'g'ri kelmoqda. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda vujudga keladigan

risklarni sug'urtalash bo'yicha eng yirik ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari qatoriga 1969 yilda AQSH hukumati tomonidan tashkil etilgan xususiy xorijiy investitsiyalar korporatsiyasi (OPIK)ni kiritish mumkin. OPIKning asosiy vazifalaridan biri AQSHlik investorlar tomonidan chet mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni siyosiy risklardan sug'urtalashga qaratilgan. OPIK tomonidan investitsion loyihalarni siyosiy risklardan sug'urtalash bo'yicha shartnomalar AQSHlik investorlar, asosan, xususiy investorlar bilan tuziladi va asosiy shartlardan biri investor mablag' yo'naltirayotgan mamlakat bilan AQSH o'rtasida ikki tomonlama hukumatlararo bitim tuzilishidir.

Investitsion loyihalarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'ladigan risklar tijorat banklarining faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. I.f.d., prof. SH.Z.Abdullaeva qayd etganidek, tijorat banklarining har bir operatsiyasi risk bilan bog'langan. Qoidaga ko'ra, tijorat banklari risklarni samarali boshqarish chora-tadbirlarini ko'radi. Ammo, ko'rilgan chora-tadbirlar har doim ham kutilgan natijani beravermaydi. O'zbekiston sharoitida bank risklarini boshqarishda sug'urtaning imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar kabi banklarning ham sug'urta tizimiga nisbatan ishonchi unchalik mustahkam emas.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish faoliyatida mavjud risklarni sug'urta mexanizmi yordamida kamaytirish va bartaraf etish borasidagi amaliy chora-tadbirlar ko'ngildagidek emas. Bunga asosiy sabab sifatida investitsion loyihalarni moliyalashtirish risklarini sug'urtalash bo'yicha maxsus dasturni ishlab chiqilmaganligidir. Bizning fikrimizcha, bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi va bank risklarini eng kam darajada kamaytirish imkoniyatini beradigan sug'urta turlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Dastur quyidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishda mavjud risklarini sug'urtaviy himoyaga olishga qaratilgan bo'lishi lozim:

* Kredit riski sug'urtasi.

- * Foiz riski sug'urtasi.
- * Valyuta riski sug'urtasi.
- * Loyihani moliyalashtirish bilan bog'liq risklarni sug'urtasi.
- * Siyosiy risklar sug'urtasi.
- * Operatsiya risklarini sug'urtasi.
- * Bank xodimlarining uchinchi shaxslar oldidagi kasbiy javobgarligini sug'urtasi.
- * Bank xodimlarining hayotini baxtsiz hodisalardan ehtiyoti shart sug'urtasi.
- * Tijorat banklarining lizing operatsiyalarini sug'urtasi.
- * Tijorat banklarining mol-mulkini sug'urtasi.
- * Garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urtasi.
- * Bankning inkassatorlik operatsiyalarini sug'urtasi.
- * Bank xizmatchisining qalloblik hatti-harakatlari natijasida ko'rilgan zararni sug'urta qilish.
- * Bank komp'yuterlari va dasturlarini komp'yuter qallobliklaridan sug'urta qilish.

Yuqorida qayd etilgan investitsion risklarni sug'urtaviy himoyaga olish bo'yicha dastur har bir moliyalashtiruvchi tashkilotning xususiyatlari va ularning takliflarini inobatga olgan holda tuziladi. Dasturning maqsadi tijorat banklarining barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Biz yuqorida sanab o'tgan bank risklarini sug'urta qilishning ayrimlari u yoki bu darajada bank amaliyotida qo'llanilyapti. Jumladan, kredit riskni sug'urta qilish, garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urta qilish, banklarning mol-mulkini sug'urta qilish, bank xodimlari hayotini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash har holda mavjud.

Iqtisodi taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklari bank risklarini kompleks sug'urtasi bo'yicha polisga ega bo'lishi majburiy hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida bu sug'urta "Bankers Blanket Bond" nomi bilan mashhurdir. Ushbu sug'urta turini rivojlanishiga ko'p jihatdan tijorat banklari faoliyatining hamma uchun ochiqligi, bank sohasidagi raqobatning kuchayishi va bank imijini

oshirishga qaratilgan siyosat katta ta'sir ko'rsatgan. Ba'zi rus olimlarining, xususan, i.f.d., prof. YU.A.Sokolov va i.f.n. N.A.Amosovaning qayd etishlaricha: "AQSHda bank risklarini sug'urtalash bo'yicha Bosh polis ishlab chiqilgan. Tijorat banklari uchun bu polisni sotib olish majburiy hisoblanadi"¹⁹. Bosh polis shartlari "Bankers Blanket Bond" (bank risklarini kompleks sug'urtasi) shartlariga o'xshash va quyidagi risklarni sug'urta himoyasiga oladi: bank xodimlarining noqonuniy va qallob hatti-harakatlaridan sug'urta qilish; bank binosida joylashgan boyliklarni nobud bo'lishi va shikastlanishidan sug'urta qilish; soxta hujjatlar asosida operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bank ko'rishi mumkin bo'lgan zararlarni sug'urta qilish; qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirish yoki o'g'irlash va yo'qotish bilan bog'liq risklarni sug'urta himoyasiga olish; qalbaki valyutalarni bank tomonidan qabul qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlarni sug'urtalash; uchinchi shaxslarning atayin hatti-harakatlari natijasida bank mol-mulkiga zarar etkazilishini sug'urtalash. SHu erda ta'kidlash o'rinliki, bayon etilgan bank risklarini sug'urtalash turlari O'zbekiston bank amaliyotida umuman qo'llanilmaydi. Bu o'z navbatida, sug'urta hamon bank tizimida ikkinchi darajali xizmat sifatida qaralib kelayotganiligini ko'rsatadi.

Biz taklif etilayotgan dastur doirasida investitsion loyihalarni moliyalashtirish faoliyatida mavjud risklarni kompleks sug'urtalash bo'yicha Bosh polis ishlab chiqishni va unda xalqaro amaliyotida mavjud bo'lgan investitsion risklardan himoyalanish tizimi o'z aksini topishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

"Bankers Blanket Bond" (bank risklarini kompleks sug'urtasi)ga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biri, uning shartlari bo'yicha sug'urtalovchi tashkilot bankning manfaatlarini sud organlarida ham himoyasini ta'minlaydi. Bundan tashqari, sug'urta tashkiloti bankning sud organlarida ishni ko'rish bilan bog'liq xarajatlarini ham qoplaydi.

¹⁹ Соколов Ю.А., Амосова Н.А. К вопросу о банковском страховании в Российской Федерации. - журнал "Деньги и кредит", №5 2002 г. стр. 66.

Biz yuqorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida mavjud risklarini kamaytirishda va bartaraf etishda sug'urta mexanizmining imkoniyatlaridan etarli darajada foydalanmayaptilar, deb haqli ravishda tanqid qilgan edik. Darhaqiqat, investitsion loyihalarni moliyalashtirish faoliyatida tez-tez uchraydigan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish natijasida ko'rilgan zararlar, foiz stavkasini o'zgarishi bilan bog'liq zararlar umuman sug'urtalanmayapti. Vaholanki, valyuta risklarini sug'urtalash va shu orqali investitsion loyihalarni moliyalashtirish operatsiyalarini amalga oshirish oqibatida ko'rgan zararlarini qoplash imkoniyati mavjud. Bunda faqat investitsion loyihalarni moliyalashtiruvchi - tijorat banklarini ayblash noto'g'ri bo'lgan edi. Mavjud sug'urta tashkilotlarida investitsion loyihalarni moliyalashtirish faoliyatida valyuta risklarini, xuddi shunday foizlarning o'zgarishi bilan bog'liq risklarini sug'urtalash bo'yicha tegishli Qoidalar va sug'urta shartnomalari ishlab chiqilmagan. Valyuta risklarini sug'urtalashda valyuta kursini pasayishi yoki oshishi natijasida bank ko'rishi mumkin bo'lgan zarar sug'urta ob'ekti bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda investitsion loyihalarni sug'urtaviy himoyaga olishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri- moliyalashtiruvchi tashkilot, ya'ni tijorat banki xizmatchilarining bank mijozlari oldidagi kasbiy javobgarligini sug'urtalash hisoblanadi. Bu sug'urta turi iqtisodi taraqqiy etgan mamlakatlarda "Bankers Blanket Bond" (bank risklarini kompleks sug'urtasi) bo'yicha sug'urtalanadi. Hattoki, mutaxassislar dastlab tijorat bankiga ishga qabul qilinayotgan paytda, albatta, uchinchi shaxslar, ya'ni bank mijozlariga zarar keltirish kasbiy javobgarligini sug'urta himoyasiga olishlari shart. Amaliyotda shunday holatlar bo'lishi mumkinki, bank xizmatchisi o'z kasbini chuqur bilmaslik yoki o'zi bilmagan holda mijozning manfaatlariga zarar keltirish mumkin. Masalan, tijorat bankining operatsiya bo'limida faoliyat ko'rsatayotgan xodimning aybi bilan mijozning topshirig'i bo'yicha uning hamkori hisob-kitob raqamiga o'tkaziladigan pul mablag'lari to'lov topshiriqnomasidagi manzil bo'yicha bormasdan, butunlay boshqa yo'nalishga ko'chirilishi mumkin. buning oqibatida

bank mijozi zarar ko‘rishi, tabiiy. SHuning uchun biz O‘zbekiston bank amaliyotida bank xizmatchilarining uchinchi shaxslar oldidagi kasbiy javobgarligi sug‘urtasini joriy etishni taklif etamiz. Zero, bu investitsion loyihalarni moliyalashtirishda yuzaga keladigan risklarni ro‘y berishi natijasida etkazilgan zararni qoplashning oqilona yo‘lidir.

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION LOYIHALAR BILAN BOG‘LIQ RISKLARNI KOMPLEKS TAHLILI

2.1 Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarida tijorat banklari kreditlarining roli

Tijorat banklarida investitsion loyihalarni moliyalashtirish bankning «Loyihaviy moliyalashtirish», «Kredit» boshqarmalari va Kredit komiteti qarori asosida beriladi. Kreditlar asosan qurilish, rekonstruksiya, ob‘ektning texnik qayta qurollantirish bilan bog‘liq bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirish, yangi texnika sotib olish, shuningdek, boshqa investitsion maqsadlar uchun ajratiladi. Kreditlar

sindikatlashgan kreditlardan tashqari hollarda boshqa bank mijozlariga, zarar bilan ishlaydigan va nolikvid balansga ega xo‘jalik sub’ektlariga berilmaydi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun bank kreditlari quyidagi 5 ta prinsip asosida ajratiladi:

- 1) ta’minlanganlik;**
- 2) to‘lovlilik;**
- 3) muddatlilik.**
- 4) maqsadlilik.**
- 5) qaytarishlilik.**

Kreditlar 3 xil muddatga: qisqa muddatga – 1 yilgacha, o‘rta muddatga – 1-5, uzoq muddatga – 5 yil va undan yuqori muddatlarga beriladi.

Kreditlar yuridik shaxs maqomini olgan kichik va o‘rta biznes vakillariga, dehqon-fermer xo‘jaliklariga kreditdan foydalanish muddatini uzaytirish shartisiz 5 yilgacha muddatga beriladi. Kredit uchun garov ta’minoti sifatida bank Hukumat kafolatini, mulk garovini, sug‘urta kompaniyalari tomonidan berilgan mijozning kreditni kaytara olmasligi riskini sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta polisini qabul qiladi.

Bank tomonidan kreditlar, ayrim holatlarni hisobga olmaganda, ishonch asosida berilmaydi, beriladigan kreditlar hajmi kredit uchun ta’minlanganlik sifatida taqdim etilgan garov qiymatining 80%idan oshmasligi kerak, kreditlash to‘g‘risidagi qaror Bank Bosh ofisi-Kredit komiteti tomonidan qabul qilinadi.

Tadbirkorlar uchun kreditlarni rasmiylashtirish o‘z ichiga kredit olish uchun berilgan arizani ko‘rib chiqish, qarz oluvchi moliyaviy holati tahlili, kreditga layoqatlilikni baholash, kreditlanadigan loyiha kompleks ekspertizasini olib borish, kredit shartnomasini rasmiylashtirish va uni imzolash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Kredit arizasida qarz oluvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, kredit summasi, kreditlash ob’ektining qoplanish muddatini inobatga olgan xolda kreditdan foydalanish muddati, kredit ajratish va uning asosiy qismi, foizlarini to‘lash grafigi, qarz mablag‘lari to‘g‘risidagi ma’lumot, boshqa banklarda ochilgan boshqa schyotlar to‘g‘risida ma’lumot, loyihada qatnashuvchi boshqa tomonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Kredit hujjatlari to'plamini Bank loyixalarni moliyalashtirish Bosh boshqarmasi 10 kun davomida ko'rib chiqadi va o'z xulosasini kredit komitetiga topshiradi. Agar loyiha bo'yicha birlamchi xulosa ijobiy deb topilsa, barcha hujjatlar Boshqarmada eng kamida 2-3 oy ichida kompleks ekspertizadan o'tadi, bunda karz oluvchi bilan birgalikda loyihaning ekspertizasini o'tkazish individual grafigi tuziladi. Ekspertizadan o'tgach, bank kredit komiteti ijobiy qaroriga asosan qarz oluvchiga ssuda schyoti ochiladi, kredit shartnomasi imzolanadi, schyot bo'yicha barcha operatsiyalar kredit mutaxassisi nazorati ostida amalga oshiriladi. Ssuda schyoti orqali kredit shartnomasida ko'rsatilgan xarajatlar qoplanadi. Bank qarz oluvchi bilan kelishgan holda pul oqimlari prognozi va qoplanish muddatini inobatga olib kreditlashda imtiyozli davrni o'rnatadi, imtiyozli davrda kredit uchun asosiy qarz to'lanmaydi, balki u uchun foiz to'lab boriladi. Qarz oluvchi kredit shartnomasiga asosan kreditni muddatidan ilgari qaytarish huquqiga ega.

Investitsion loyihaning kompleks ekspertizasi loyihaning texnik ekspertizasidan, o'rnatiladigan asbob-uskuna texnik tavsiflari va texnologiyasini o'rganishdan, loyiha bo'yicha marketing va informatsion izlanishlarni olib borishdan, ishlab chiqariladigan yoki ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan talab va taklifni o'rganishdan, raqobatchilar muhitini tahlil qilishdan boshlanadi. Investitsion loyiha moliyaviy-iqtisodiy ekspertizasida loyihani amalga oshirishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi tahlil qilinadi, pul mablag'lari oqimi kuzatiladi, kapital xarajatlar qiymati o'zgarishining real indeksleri bazasida shartnomaviy baholarni o'rnatishning to'g'riligi aniqlanadi va ma'qul moliyalashtirish sxemasini tanlash bo'yicha maslahatlar beriladi. Kompleks ekspertizaning navbatdagi bosqichida investitsion loyihadagi risklar darajasi aniqlanadi va ularni kamaytirish chora-tadbirlari belgilanadi, shuningdek qarz oluvchi shaxsga tegishli asosiy vositalarni, bino-inshootlarni, qurilmalarni hamda ta'minlanganlik sifatida taqdim etiladigan vositalarini baholash ishlari amalga oshiriladi. Kompleks ekspertizadagi tahlil ishlarining so'ngisi esa asbob-uskuna etkazib beruvchilar bilan imzolangan

shartnomalarning mavjudligi, kelishuvlar asosida erkin ayirboshlanadigan valyuta evaziga tashqi davlatlardan asbob-uskuna va materiallarni sotib olish masalalari holati tekshiriladi, asbob-uskuna etkazib berish va o'rnatish muddatlarining ishlab chiqarish grafigi bilan mutanosibligi o'rganiladi.

Investitsion loyiha kompleks ekspertizasi yakunida loyihani moliyalashtirish uchun qarz mablag'larni ajratish bo'yicha xulosa tayyorlanadi va xulosa ijobiy deb hisoblansa, uzoq muddatga korxonaga mablag' ajratish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Qabul qilingan qarorga asosan qarz oluvchi shaxs va loyihani moliyalashtiruvchi institut o'rtasida kredit shartnomasi imzolanadi.

Kredit shartnomasi qarz oluvchi va moliyaviy institut o'rtasidagi asosiy munosabat vositasi bo'lib hisoblanadi va u imzolangan vaqtdan boshlab, jalb qilingan qarz mablag'lar, foizlar, jarimalarni to'liq qaytarilguncha amal qiladi. Moliyaviy institutlar qarz shartnomasiga ko'ra qarz mablag'larni ajratishda loyiha qoplanish muddatlarini, pul oqimlari prognozini inobatga olgan holda imtiyozli davr o'rnatadi. Bu imtiyozli davr mobaynida qarz oluvchi shaxs qarz mablag'larning asosiy qismini qaytarmay, qarz bo'yicha faqatgina foizlarni to'laydi, odatda imtiyozli davr bir yildan oshmaydi.

Kredit bo'yicha foizlar kredit shartnomasidan kelib chiqib belgilanadi, ular mamlakatdagi pul bozori va inflyasiya holatiga bog'liq ravishda hamda tomonlarning o'zaro kelishuvlariga asosan o'zgartirilishi mumkin. Foiz miqdori qarz mablag'lardan foydalanish muddati, qarz oluvchi tomonidan mablag'larning o'z vaqtida qaytarish kafolatlari, qarz mablag'lar resurslariga bo'lgan talab va taklif hamda ularning bahosi, shuningdek mavjud investitsion loyihadagi risklarga bog'liq ravishda aniqlanadi. Banklarda kreditlar uchun foiz stavkasi quyidagi umumiy formula bo'yicha belgilanadi:

	Karz oluvchini			
	kreditlash		Majburiyat	Bankning
Kredit	uchun jalb	Bank	larni bajarmaslik	rejalashtirayotgan

buyicha	=	kilingan	+	operatsion	+	riskidan bankni	+	foyda normasi
foiz		mablaglar		xarajatlari		ximoya kilish		
stavkasi		chegaraviy				uchun marja		
		kiymati						

Xorijiy valyutada kreditlar uchun yillik % stavka – 8-12%ni, milliy valyutada esa 20-30%ni tashkil etmokda. Uzoq muddatli qarz mablag‘lardan foydalanganlik uchun foizlar odatda har choraklarda hisoblanadi va to‘lanadi. Agar uzoq muddatli qarzlar boshqa korxonalar mablag‘lari hisobiga jalb etilgan bo‘lsa, qarz mablag‘lar bo‘yicha foizlar imzolangan shartnomaga ko‘ra qarzdor shaxs tomonidan mustaqil ravishda to‘lanadi yoki qarz bergan korxona tomonining to‘lov talabnomasiga asosan to‘lanadi. Agar qarz oluvchi shaxs o‘z vaqtida foizlarni qaytara olmasa, qarz oluvchi shaxs muddati o‘tgan kreditorlik qarzdorlikka ega bo‘lib qoladi, bu qarzdorlik summasiga nisbatan jarima hisoblab boriladi. Agar uzoq muddatli qarzlar tijorat banklari mablag‘lari hisobidan berilgan bo‘lsa, foizlar qarz oluvchi asosiy talab qilib olgungacha depozit schyotidan memorial orderlarni rasmiylashtirish orqali qarz shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan muddatlarda va grafiklarda qaytariladi. Bunda qarz oluvchi foizlarni o‘z vaqtida qaytara olmasa, qarz oluvchi bank oldida muddati uzaytirilgan qarzdorlikka ega bo‘lib qoladi va ular bo‘yicha jarima hisoblanib boriladi. Qarzdor foydalanish davomida tomonlarning o‘zaro kelishuvlari asosida qarzni qaytarish grafigiga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Qarz oluvchi va tijorat banki o‘rtasida qarz shartnomasi imzolangach, qarz oluvchi uchun ssuda schyoti ochiladi, bu schyot orqali o‘tadigan barcha operatsiyalar qarz shartnomasidan kelib chiqib olib boriladi. Agar qarz mablag‘lari etkazib beriladigan va o‘rnatiladigan asbob-uskuna xarajatlarini moliyalashtirish uchun sarflansa, ssuda schyotida ushbu summada kredit qoldig‘i mavjud bo‘lib, u qarz oluvchi hisob raqamiga kelib tushadigan mablag‘lar hisobga kamayib boradi, ya’ni bank oldidagi qarzdorlik to‘lab boriladi.

Agar qarz mablagʻlari ishlab chiqarish maqsadlaridagi obʻekt qurilishi, etkazib beriladigan va oʻrnatiladigan asbob-uskuna xarajatlarini moliyalashtirish uchun sarflansa, ssuda schyotida ushbu summada kredit qoldigʻi mavjud boʻlib, u qarz oluvchi hisob raqamiga kelib tushadigan mablagʻlar hisobga kamayib boradi, yaʼni bank oldidagi qarzdorlik toʻlab boriladi.

Qarz shartnomasida qarz oluvchi qarz va qarzdand haqiqatda foydalanilgan vaqt uchun foizlar miqdorining barcha summasini muddatidan avval qaytarishi ham koʻzda tutiladi. Qarz va u uchun foiz mablagʻlari oʻz vaqtida toʻlanmasa, tegishli tartibda jarima hisoblab boriladi, bu holatda ham qarz oluvchi ssuda schyotiga mablagʻ tushmasa, jarima hisoblash qarz miqdorining 5%iga etguncha hisoblab boriladi, jarima miqdori bu chegaradan ortib ketsa, qarz beruvchi qarzdor shaxs ustidan xoʻjalik sudiga tegishli qaror chiqarishni soʻrab ariza beradi.

Ajratilgan kreditlar ustidan bank monitoring olib boradi, kreditning asosiy qismi va foizlarini oʻz vaqtida toʻlash va kreditdan maqsadli foydalanishni nazorat – monitoring qilish quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- kredit ajratilgan kundan boshlab investitsion davr tugaguncha kreditni maqsadli ishlatish ustidan nazorat oʻrnatish;
- kreditni oʻzlashtirishni ifodalovchi shartnomalar, biznes rejalardagi koʻrsatkichlar bilan kreditni haqiqatdagi oʻzlashtirish koʻrsatkichlarini taqqoslash;
- qarz oluvchi xoʻjalik va moliyaviy faoliyatining choraklik tahlili;
- kredit boʻyicha taʼminlanganlik predmeti holatini tekshirish, ishonch xati taqdim etgan shaxs moliyaviy holatini tahlil qilish;
- loyihada ishlab chiqarish quvvatlarining oʻzlashtirilishini tekshirish;
- mumkin boʻlgan zararlarni qoplash uchun zahirani tashkil etish maqsadida kreditni klassifikatsiyalash.

Kreditlashning muddatli, kontokorrent, revolver turlari bor. Muddatli kreditlashda mijozga alohida ssuda scheti ochiladi va ushbu schyot orqali bank kredit mablagʻlarni tovarlar va xizmatlar sotuvchisi schyotiga bir martalik pul

ko'chirish yo'li bilan o'tkazadi. Aylanma kapitalni to'ldirish uchun beriladigan muddatli kredit muddati 1 yilga teng, bu kreditlash turida kredit liniyasidan foydalanilmaydi. Masalan, «Coscom» qo'shma korxonasi schyoti №20214000300457913001, uning ssuda schyoti 13101008794026237001, sotuvchi schyoti 20208000000416508001.

Kontakorent kreditlashda bank mijozga alohida kontakorent schyot ochadi, mijozning asosiy schyoti bo'yicha esa operatsiyalar to'xtatiladi. Barcha operatsiyalar, jumladan kredit mablag'larini ko'chirish ham kontakkorent schyot orqali o'tkaziladi. Bu schyot kreditida mijoz foydalanishi mumkin bo'lgan mablag'lar, debetida esa qilinadigan xarajatlar, jumladan kredit va uning foizlari yozib boriladi va to'lanadi. Bu schyotda doimo kredit qoldig'i mavjud bo'lishi talab qilinadi. Kontakorent schyotning amal qilish muddati – 12 oy.

Revolver kredit mijozga alohida ssuda schyoti orqali kredit liniyasini ochish orqali beriladi. Kredit liniyasidan mablag'lar bo'lib-bo'lib, ma'lum qismlarda o'tkaziladi.

Loyihalarni bank kreditlari hisobiga moliyalashtirishda mikrokreditlardan xam foydalaniladi, ular 3 yilgacha faqat UzR rezidentlariga beriladi. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan xususiy tadbirkorlarga 5.000 \$ ga teng summagacha ham milliy valyutada, xam xorijiy valyutada kreditlar beriladi. Kichik biznes sub'ekti bo'lgan yuridik shaxslarga esa 10.000 \$gacha teng summada milliy valyutada va xorijiy valyutada kreditlar beriladi. Ular uchun % stavka – yiliga 7%.

CHet el valyutasida kredit olish uchun bankka kredit summasidan 120% miqdorida garov ta'minoti, milliy valyutada esa 125% miqdorida garov ta'minoti topshiriladi. Topshirilayotgan garov ta'minoti sug'urtalangan bo'lishi talab etiladi, uni sug'urtalash uchun predmet summasidan 0,5% miqdorida sug'urta mukofotini to'lashi kerak. Masalan, bankka topshirilayotgan garov summasi 112.500 \$, uni sug'urtalash kerak, $112.500 \$ \times 0,5\% = 562,5\$$, mijoz kreditdan foydalanishning har yilida mulkni sug'urtalab borishi talab etiladi.

Sug'urta kompaniyalari olinayogan kreditlar uchun o'z kreditni qaytarmaslikdan sug'urtalanish qoplamalarini berishlari mumkin. Buning uchun sug'urta qoplamasi berilayotgan summadan 5-10% sug'urta kompaniyasiga pul to'lash kerak bo'ladi. Masalan, kredit 100.000\$, garov ta'minoti ($100.000\$ \times 120\% =$) 120.000\$, shundan 112.500 \$ga mijozda garov ta'minoti bor, etmayotgan summaga 7.500\$ga esa sug'urta kompaniyasidan qoplama olinadi va buning uchun kompaniyaga ($7.500\$ \times 5\% =$) 375 \$ so'mda to'lanadi va u kreditdan foydalanishning har yilida to'lab boriladi.

Biroq banklar kreditlar bo'yicha garov ta'minoti sifatida sug'urta kompaniyalarining sug'urta qoplamalarini qabul qilishni har doim ham xoxlamaydilar. Chunki, keyinchalik sug'urta shartnomasiga ko'ra, kreditning ma'lum qismini sug'urta kompaniyasidan undirib olish qiyinchilik tug'diradi. Ajratilayotgan kreditlar uchun asosan 3-shaxs kafolatlari, depozitlar, qimmatli kog'ozlar, ko'chmas mulk qabul qilinmoqda.

Bankka garov ta'minoti topshirishda mijozlar, asosan kichik biznes sub'ektlari qiyinliklarga uchraydilar. AQSHda bu muammoni echish maqsadida Kichik biznes ma'muriyati (SBA – Small business administration) tashkil etilgan. U banklardan kredit olayotgan kichik biznes sub'ektlariga garov ta'minoti sifatida o'z nomidan kafolatlar beradi. Kichik biznes sub'ektlari olayotgan kreditlarning 75-80%ini aynan SBA kafolati bilan ajratmokda. SBA kafolati ostida olinayotgan kredit qismiga bank yiliga 2-3% ustama – Prime rate hisoblab boradi. SBA kafolatlari o'ta ishonchli va yuqori likvidli hisoblanadi, shuning uchun banklar ularni qabul qilishga ko'proq qiziqadilar.

SBA summasi yiliga 10 mlrd. \$ dan ortiq bo'lgan kreditlar uchun o'z kafolatini beradi. Berayotgan kafolati uchun SBA kredit summasidan yiliga 0,25-4% haq oladi, uni mijoz to'laydi.

SHu o'rinda, investitsion loyihalarni moliyalashtirish bilan bog'liq quyidagi misolni ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Kredit summasi 100.000 \$, muddati 2 yil, % stavkasi – yiliga 10%, investitsion davr – 6 oy. 100%lik akkreditiv.

Investitsion davrda milliy valyutada tulanadigan bank komissiyalari:

1) O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga pul ko‘chirganlik uchun:- oddiy pul ko‘chirish – $0,15\% \times 100.000 \$ = 150 \$$

2) akkreditivni ochganlik uchun komissiya haqi: $0,5\% \times 100.000 \$ = 500 \$$

3) akkreditiv bo‘yicha to‘lovlar o‘tkazganlik uchun komissiya: $0,5\% \times 100.000 \$ = 500 \$$

4) akkreditiv bo‘yicha jo‘natilgan yuk hujjatlarini tekshirganlik uchun komissiya: $0,5\% \times 100.000 \$ = 500 \$$

5) akkreditivni tasdiqlagani uchun komissiya: $3,5\% \times 100.000 \$ = 3.500 \$$

6) kontraktni bankda ro‘yxatdan o‘tkazganlik uchun komissiya: 20\$

7) ijro etilgan kontraktlarni hisobdan chiqarganlik uchun komissiya: 20 \$

8) kontrakt loyihasini yozma xulosa berish asosida ekspertiza qilganlik uchun komissiya: 50\$

9) garovni sug‘urta qilganlik uchun to‘lanadigan sug‘urta mukofoti: $120.000 \$ \times 0,5\% = 600 \$$

10) garovni notariusda ro‘yxatdan o‘tkazganlik uchun komisiya: $120.000 \$ \times 0,15\% = 180 \$$

Jami: 6.020 \$.

Investitsion davrda xorijiy valyutada tulanadigan bank komissiyalari:

1) boshqaruv uchun bir marta to‘lanadigan komissiya: $1\% \times 100.000 \$ = 1.000 \$$

2) majburiyat uchun komissiya: $0,5\% \times 100.000 \$ = 500 \$$

3) investitsion davr uchun foizlar: $(100.000 \$ \times 10\%) / 2 = 5.000 \$$

Jami: 6.500 \$.

Kreditni kaytarish grafigi²⁰

Tulovlar davri	Lizing asosiy karzi, \$	Foizlar, \$	Jami tulovlar,\$
1 yil I chorak	12.500	2.500	15.000
1 yil II chorak	12.500	2.188	14.687
1 yil III chorak	12.500	1.875	14.375
1 yil IV chorak	12.500	1.563	14.062
2 yil I chorak	12.500	1.250	13.750
2 yil II chorak	12.500	938	13.437
2 yil III chorak	12.500	625	13.125
2 yil IV chorak	12.500	0	12.500
Jami	100.000	10.937	110.937

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki investitsion loyixalarni moliyalashtirishda etakchi bank hisoblanadi. Bank 1994 yildan buyon chet el valyutasida kreditlar ajratadi, kreditlar investitsion loyixalarni moliyalashtirish uchun: yangi texnologiya, uskuna sotib olish, xom-ashyo va materiallar kurinishida boshlangich aylanma kapitalni shakllantirish uchun beriladi. Loyixalarni moliyalashtirishda bank avvalambor uning import urnini koplovchi va eksportga yunaltirilgan maxsulotlar ishlab chikarishga ixtisoslashganligiga karatadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki quyidagi summalarda kreditlar berishi mumkin:

a) 100.000 \$ - 5mln. \$ gacha kreditlar – kichik biznes sub'ektlari uchun;

²⁰ Муаллиф томонидан илмий изланиш натижалари асосида тузилган.

- b) 5-100 mln. \$ - mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy isloxlarni ta'minlovchi ustivor loyixalar uchun;
- v) 10.000 \$ gacha – kichik biznes sub'ektlariga mikro kreditlar sifatida;
- g) 1 mlrd. sumgacha – juda ishonchli mijozlar uchun.

2.3 Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda mavjud risklarni kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Iqtisodiy kategoriya sifatida riskga ta'rif beradigan bo'lsak u, ro'y berishi mumkin va aksincha umuman ro'y bermasligi xam mumkin. Bunday vaziyatning natijasi loyixa uchun 3 ta ko'rinishda bo'lishi mumkin. YA'ni, salbiy, ijobiy, nomli. Ushbu loyixani amalga oshirishda asosiy risk sifatida xizmatlar bozorda kuchli raqobatchining bo'lishidir. Umuman olganda kompaniya uchun quyidagi turdagi risklar mavjud bo'lib ular loyixani amaliyotga joriy etishda o'z ta'sir doiralarini o'tkazishlari mumkin.

Siyosiy risklar –bu turdagi risklar davlatdagi siyosiy jarayon bilan bevosita bog'liq bo'lib o'z ichiga quyidagilarni oladi;

- xarbiy xarakatlar natijasida faoliyat ko'rsata olmaslik;
- kutilmagan xodisalarning ro'y berishi natijasida vaqtinchalik faoliyatni yurita olmaslik.
- soliq qonunchiligida o'zgarishlar.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy axvolning tinchligiga qaramasdan ko'rinishdagi risklar davlatimizga chegaradosh bo'lgan davlatlardagi notinch axvol sababli mavjud bo'lib qoldi.

Risk darajasini kamaytirish tadbirlari.

- davlat organlari bilan kompaniya aksiyadorlari o'rtasidagi aloqani mustaxkamlash.
- ishbilarmon muxitini yaratishuqiy risklar – bu risklar qonunchilik bazasining nomukammalligi, xujjatlarni to'g'ri tuzish, rasmiylashtirilmasligi bilan bevosita bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sub'ektlari uchun barcha qonunchilik bazasi mukammal ishlab chiqilganligiga qaramasdan bu turdagi riskni inobatga olmaslik mumkin emas. Buning asosiy sababi byurokratiyaning mavjudligi.

Ammo kompaniya faoliyatini Davlat qo'llab quvvatlayotgani bu turdagi risk darajasini pasayishga olib keladi.

Risk darajasini kamaytirish chora tadbirlari bo'lib;

- xujjatlarni aniq shakllarini yuritish;
- xujjatlarni rasmiylashtirishda bu soxa mutaxasislarini jalb etish;
- yukori malakali yurist va tarjimonlar uchun qo'yshimcha moliyaviy resurslarni ajratish.

Texnik risklar - bu turdagi risklar ishlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar va texnik loyixaning mavjud emasligidan vujudga keladi.

Asbob uskunalarga tender e'lon qilingandan boshlab, tovar etkazib beruvchining texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yuqori malakali mutaxasislar mavjudligiga xam inobatga olinadi. Bu sezilarli ravishda texnik risk darajasini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Ishlab chiqarish riski – bu turdagi risk taklif etilayotgan xizmatning sifati pastligi, yuqori malakali mutaxasislarning mavjud emasligi bo'lishi mumkin. SHuni ta'kidlash lozimki, kompaniya loyixasini amaliyotga joriy etish uchun etarli darajada yuqori malakali mutaxasislarga ega bo'lsa, bu turdagi risk darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Riskni kamaytirish darajasini bo'yicha chora tadbirlari:

- Loyixani amalga oshirishda aniq qalendar rejalashtirish va boshqarishni yo'lga qo'yish;
- Taklif etilayotgan xizmatlar ustidan doimiy nazoratni o'rnatish;
- YUqori malakali kadrlarni tayyorlab borish.

Ekologik risklar – bu turdagi risklar atrof muxitni ifloslanishi, atmosfera va suvga xar xil chiqindilarning chiqishi natijasida yuzaga keladi. Biz shug'urlanayotgan soxa uchun bu turdagi risk darajasi ancha pastdir. Marketing

riski – bu turdagi risklar bozorni yaxshi o‘rganilmaganligi, baxo siyosatining to‘g‘ri yuritilmaganligi marketing strategiyasini noto‘g‘ri ekanligi bilan bog‘liq.

Risk darajasini kamaytirish;

- Kuchli marketing xizmatini joriy etish;
- Marketing strategiyasini ishlab chiqish;
- Marketing tadqiqotlarini o‘tkazish;
- Egiluvchan tarif siyosatini ishlab chiqish.

Moliyaviy risklar – bu turdagi risklar moliyaviy natijalarini yo‘qotilgan, istemolchining to‘lovga layoqatsizligidan, talabning qatiyemasligidan, raqobatchilar tomonidan narxni kamaytirishlar, oborot mabag‘larining etishmasligini kelib chiqishni mumkin.

Riskni darajasini kamaytirish chora-tadbirlari.

- Istemolchilar talabini o‘rganish;
- Sifat ustida to‘liq nazoratni o‘rnatish;
- Investitsion va kredit resurslarini yangi yo‘nalishlarini aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rish;
- Investitsion – moliyaviy strategiyani ishlab chiqarish.

Tabiiy risklar – bu turdagi risklar tabiatda xar xil baxtsiz xodisalarning ro‘y berishi, er qimirlashi, suv toshishi sel kelishi, yong‘in chiqishi, epidemiya tarqalishi bilan bog‘liqdir.

Risk darajasini kamaytirish chora-tadbirlari;

Majburiy sug‘urta.

Ushbu loyixaning amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zbektelekom” AK ning raqamlashtirish tarmog‘i darajasini ko‘tarishga, abonentlarni qo‘shimcha yangi sifatli xizmatlar bilan ta‘minlashga, Internet tarmog‘iga tezroq kirib borishiga xizmat qiladi. Telekamunikatsion tizimda ONC №7 ning qo‘llanish istemolchilar uchun zamonaviy xizmatlardan foydalanish istiqbollarini belgilab berib, intellektual xizmatlar realizatsiyasini yo‘lga qo‘yadi. Loyixa abonentlar sonini kengaytirib axolining aloqa xizmatlariga

bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. SHu bilan bir qatorda xalqaro va shaxarlararo almashinuvni kengaytirib uyali aloqi tizimini yanada rivojlantirshdi aloqa stansiya xizmatlarini jaxon standartlari darajasiga etkazib kompaniya daromadi ko‘paytirishga olib keladi.

YUqorida keltirilgan aloqa ma’lumotlar “O‘zbektelekom” AK moliyaviy xolatining mustaxkamligini yana bir bor isbotlab ushbu loyixani keng ko‘lamda amaliyotga joriy etilish maqsadi muvofiqligini ta’kidlaydi.

Loyixaga ta’sir etuvchi risklar ichida marketing risklari mavjud bo‘lib bu risk darajasini kamaytirish chora tadbirlarini qay darajada olib borilishiga bevosita bog‘liqdir.

III BOB. O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA JALB ETILAYOTGAN XORIJIY INVESTITSİYALARNI SUG‘URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

3.1 Iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarni sug‘urtalashni takomillashtirish

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda yuzaga keladigan asosiy risklardan biri eksport shartnomalari bilan bog'liqdir. Zero, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda eksport shartnomalari bo'yicha olingan majburiyatlarni o'z vaqtida ijro etilishi muhim o'rin tutadi. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida eksport shartnomalarini sug'urtalashga quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- to'lovni kechiktirish shartlarida amalga oshirilayotgan hamda birinchi darajali banklarning to'lov majburiyatlari bilan ta'minlanmagan eksport kontraktlari siyosiy va tijorat tavakkalchiliklardan sug'urta qilish ilovaga muvofiq tartibga binoan amalga oshiriladi.

- To'lov kechiktirilishni nazarda tutuvchi eksport kontraktlar bo'yicha siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug'urta qoplamasi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan eksport qiluvchilar va tijorat banklariga sug'urta tashkilotlari tomonidai beriladi.

- Eksport yuk tashishlarini sug'urta qilish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va «Inkoterms» xalqaro qoidalariga muvofiq sug'urta qilish huquqiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

Eksport kontraktlarini sug'urta qilish, shuningdek sarmoya, tovarlar va xizmatlar xalqaro bozorlarida davlatning va milliy eksport qiluvchilarning manfaatlarini siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan himoya qilish maqsadida eksport kontraktlari bo'yicha tijorat banklarining kreditlariga sug'urta qoplamasi berishni nazarda tutadi. Sug'urta qoplamasi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan eksport qiluvchilarga (keyingi o'rinlarda «eksport qiluvchi» deb ataladi) va O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan tijorat banklariga faqat kelib chiqqan mamlakati O'zbekiston bo'lgan mahsulotlarni eksport qilish (lizing ham shu jumlagi kiradi) bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha beriladi. Eksport kontraktlari eksport sug'urtasining xalqaro normalariga muvofiq sug'urta tashkilotlari tomonidai sug'urta qilinadi. Tijorat tashkilotlari

hisoblangan va sug'urta qilish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxslar sug'urta tashkilotlari sifatida e'tirof etiladi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan risklarni quyidagicha guruhlash mumkin:

Siyosiy tavakkalchiliklar- - xorijiy hamkor mamlakatida u tomonidan qabul qilingan kontrakt majburiyatlari bajarilishiga to'liq yoki qisman to'sqinlik qiluvchi siyosiy va makroiqtisodiy vaziyat noqulay o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchiliklar, ular eksport kontraktlari bajarilishi va investitsiya loyihalari amalga oshirilishi bilan bog'liq tavakkalchiliklarga bo'linadi.

Eksport kontraktlari bajarilishi bilan bog'liq siyosiy tavakkalchiliklarga quyidagilar kiradi;

import yoki eksportga embargo joriy qilish;

xorijiy hamkor mamlakatidagi e'lon qilingan yoki e'lon qilinmagan urushlar, fuqarolar g'alayonlari, inqiloblar, terroristik harakatlar, sabotaj;

xorijiy hamkor mamlakati hukumatining tuzilgan kontrakt shartlari umuman yoki uning qismlari bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi hatti-harakatlari, shu jumladan O'zbekistonga nisbatan kamsituvchi tusdagi yangi qonun hujjatlari joriy etilishi;

xorijiy hamkor mamlakatida konvertatsiya qilinadigan valyuta etishmasligi tufayli transfert kechiktirilishi, O'zbekiston bilan xorijiy hamkor mamlakati o'rtasidagi to'lovlarni cheklab qo'yuvchi xorijiy hamkor mamlakatining O'zbekistonga tashqi arziga xizmat ko'rsatishga moratoriy e'lon qilinishi.

Investitsiya loyihalari amalga oshirilishi bilan bog'liq siyosiy tavakkalchiliklarga quyidagilap kiradi:

mulkning ekspropriatsiya qilinishi, shuningdek xorijiy hamkor mamlakatida qabul qilingan mulk yoki ulardan olinadigan daromad ustidan nazorat qilish yo'qolishiga olib keladigan har qanday onun hujjatlari yoki ma'muriy choralar, xorijiy hamkor mamlakati hukumati tomonidan o'z

hududida iqtisodiy faoliyatni tartibga solish maqsadida joriy etiladigan umumiy qo'llaniladigan kamsitmaydigan tusdagi choralardan tashqari;

xorijiy hamkor mamlakatidagi e'lon qilingan yoki e'lon qilinmagan urushlar, fuqarolar g'alayonlari, inqiloblar, terroristik harakatlar, sabotaj.

Tijorat risklari. Bu - xorijiy hamkorning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli bilan bevosita bog'liq bo'lgan hamda uning isbot qilingan to'lovga qodir emasligi yoki bankrotligi bilan va kontrakt bo'yicha uning tomonidan qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar bajarilishi mumkin emasligi bilan ifodalanadi.

Siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan cyg'ypta qilish.

Bank kreditlarini jalb qilmasdan to'lovni to'liq (yoki qisman) kechiktirish shartlarida amalga oshiriladigai eksport kontrakt bo'yicha sug'urta qoplamasi olish uchun eksport qiluvchi sug'urta tashkilotiga:

ariza - so'rovnoma;

eksport kontraktining asl nusxasini va nusxasini;

eksport kontraktini qo'llab-quvvatlash uchun xorijiy xaridorning kafili tomonidan sug'urta tashkiloti yoki eksport qiluvchi foydasiga berilgan qarshi kafolat (aksilkafolat)ni;

eksport kontrakti qiymatining kamida 15 foizi miqdorida avans to'lovi olinganligi to'g'risida bankning (eksport qiluvchining vakolatli bankining) ma'lumotnomasi nusxasini taqdim etadi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tuzilgan kontraktlar ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi. Berilgan sug'urta qoplamasi cyg'ypta tashkiloti tomonidan tasdiqlangan standart polis ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Sug'urta haqini to'lash shartlari sug'urtalanuvchi bilan sug'urta tashkiloti o'rtasida tuziladigan yakka tartibdagi bitimda qayd etiladi. Sug'urta tashkilotining cyg'ypta polisi bo'yicha majburiyatlari sug'urta haqi uning joriy schyotiga tushgan kundan boshlab kuchga kiradi. Sug'urta to'lovni to'lash to'g'risidagi qapop e'tirozni o'rganish hamda sug'urta voqeasini va uning sababini hamda etkazilgan zarar

miqdorini tasdiqlovchi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan xulosa asosida qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan tijorat banklari va (yoki) eksport qiluvchilar tomonidan eksportga kredit berishning xalqaro amaliyotiga muvofiq shartlarda va muddatlarga beriladigan kreditlar sug'urta bilan ta'minlanadi, xususan:

xorijiy hamkor (xaridor) tomonidan kontrakt qiymatining kamida 15 foizi miqdoridagi avans to'lovi to'langanida, bosharti kredit bir yildan ortiq davrga berilsa;

❖ kreditdan foydalanishning 5 yilgacha (imtiyozli davr chiqarib tashlangan holda bo'lgan, tovarlariing ayrim turlari bo'yicha 12 yilgacha bo'lgan eng ko'p muddatiga rioya qilinganda;

❖ eksport kontrakti bajarilgandan keyin kredit bo'yicha asosiy qarz kreditning to'lanmagan summasiga qo'shilgan foizlar bilan bir vaqtda to'langan holda kamida har olti oyda izchil teng to'lovlarda qaytarilganda. Eksport va kredit talablariga yon bosish faqat cyg'urta tashkiloti bilan yozma kelishuvga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin. Kompensatsiya yoki qarshi bitishuv tuzilgan taqdirda eksport va import kontraktlari mutlaqo bir-biridan ajratilishi va bir-biriga bog'liq bo'lmasligi kerak. Tijorat banklarining eksport qiluvchilarga to'lovni kechiktirish bilan bog'liq bo'lmagan kontraktlap uchun beriladigan kreditlari sug'urta qilinmaydi.

Tijorat banklarining eksport kontraktlari bo'yicha kreditlari mahsulot etkazib beruvchining krediti va xaridorga beriladigan kredit sifatida berilishi mumkin. Mahsulot etkazib beruvchining krediti - kredit eksport qiluvchi tomonidan etkazib berilgan texnologiya, tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni kechiktirish ko'rinishida xaridorga beriladi. Eksport qiluvchi sug'urtalanuvchi, eksport qiluvchi va (yoki) O'zbekiston Respublikasining vakolatli tijorat banki benefitsiar (naf ko'ruvchi) bo'ladi.

«Mahsulot etkazib beruvchining krediti» turi 6o'yicha sug'urta qoplamasi berish quyidagi izchillikda amalga oshiriladi: eksport qiluvchi bilan xorijiy xaridor o'rtasida eksport kontrakti shartlarining kelishilishi; vakolatli tijorat bankiga va sug'urta tashkilotiga ariza va zarur hujjatlar turkumini taqdim etish; arizaning vakolatli tijorat bankida va sug'urta tashkiloti tomonidan ko'rib chiqilishi, loyihani mablag' bilan ta'minlash maqsadga muvofiqligi va sug'urta qoplamasi berish (yoki rad etish) imkoniyati to'g'risidagi xulosa asosida qaror qabul qilish; eksport qiluvchi tomonidan xorijiy xaridor bilan mahsulot etkazib berish yuzasidan kontrakt tuzilishi; xorijiy xaridor tomonidan sug'urta tashkilotiga yoki eksport qiluvchiga import qiluvchi mamlakati xukumi yoki xorijiy bank nomidan aksilkafolat berilishi; vakolatli tijorat banki bilan eksport qiluvchi o'rtasida kredit shartnomasi tuzilishi va mablag' bilan ta'minlash boshlanishi; eksport qiluvchi tomonidan xorijiy hamkorning majburiyatlari bajarilishi bo'yicha talablar huquqining sug'urta tashkilotiga berilishi, sug'urta haqi to'lanishi, sug'urta tashkilotidan sug'urta polisi olinishi; kredit bir yildan ortiq muddatga berilgan taqdirda xorijiy xaridor tomonidan kontrakt qiymatining kamida 15 foizi miqdorida avans to'lanishi; tuzilgan kontrakt shartlariga muvofiq eksport qiluvchi tomonidan xorijiy xaridorga mahsulot etkazib berilishi. Qarz majburiyatlarining O'zbekistonning vakolatli tijorat bankida hisobga olinishi; eksport kontrakti bo'yicha etkazib berilgan mahsulot uchun xorijiy xaridor tomonidan eksport qiluvchiga haq to'lanishi; eksport qiluvchi tomonidan kreditning vakolatli tijorat bankiga qaytarilishi;

Sug'urta voqeasi yuz bergan taqdirda:

a) eksport qiluvchi yoki vakolatli tijorat banki sug'urta voqeasi yuz berganligi to'g'risida sug'urta tashkilotini xabardor qiladi;

b) eksport qiluvchi yoki vakolatli tijorat banki sug'urta tashkilotiga zararlar bo'yicha regress huquqiga ko'ra talabnoma beradi;

v) sug'urta tashkiloti e'tirozni o'rganib chiqadi va sug'urta to'lovni to'lash yoki uni berishni rad etish haqida asoslangan qaror qabul qiladi;

g) xaridorning kafili yoki xorijiy xaridor kontrakt bo'yicha arzni sug'urta tashkiloti foydasiga to'laydi.

«Xaridorga beriladigan kredit» - kredit amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan tijorat banki tomonidan, kreditni keyinchalik xorijiy xaridorga qayta moliyalash uchun xorijiy xaridor bankiga yoxud eksport kontrakti haqini to'lash uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy xaridorga beriladi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti - vakolatli tijorat banki sug'urtalanuvchi bo'ladi. Sug'urta qoplamasi berish quyidagi izchillikda amalga oshiriladi: eksport qiluvchi bilan xorijiy xaridor o'rtasida mahsulot etkazib berishga eksport kontrakti shartlarining kelishilishi; vakolatli tijorat banki bilan xorijiy xaridor yoki xorijiy xaridor banki o'rtasida kredit bitimi loyihasining kelishilishi; eksport kontraktiga sug'urta qoplamasi olish uchun vakolatli tijorat banki nomidan sug'urta tashkilotiga ariza berilishi; arizaning sug'urta tashkilotida ko'rib chiqilishi va sug'urta qoplamasini ma'qullash (rad etish) to'g'risidagi xulosa asosida qaror qabul qilish; O'zbekistonlik eksport qiluvchi bilan xorijiy xaridor o'rtasida eksport kontrakti imzolanishi; O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan vakolatli tijorat banki bilan xorijiy xaridor banki yoki xorijiy xaridor o'rtasida kredit bitimi imzolanishi; sug'urta tashkilotiga xorijiy xaridor hukumatining yoki xorijiy bankning kafolati taqdim etilishi; vakolatli tijorat banki bilan sug'urta tashkiloti o'rtasida sug'urta shartnomasi tuzilishi; vakolatli tijorat banki tomonidan sug'urta mukofotining to'lanishi, sug'urta tashkiloti tomonidan eksport krediti qoplamasining berilishi; eksport kontrakti shartlariga muvofiq eksport qiluvchiga xorijiy xaridor tomonidan 15 foiz avans to'lovining to'lanishi; vakolatli tijorat banki tomonidan mablag' bilan ta'minlash boshlanishi; eksport kontrakti shartlariga muvofiq eksport qiluvchi tomonidan mahsulot etkazib berilishi; xorijiy xaridor (bank) tomonidan vakolatli tijorat bankiga kreditning to'lanishi;

Sug'urta voqeasi yuz bergan taqdirda:

a) vakolatli tijorat banki tomonidan sug'urta tashkilotining sug'urta voqeasi yuz berganligi to'g'risida xabardor qilinishi;

b) vakolatli tijorat banki sug'urta tashkilotiga zararlar bo'yicha regress huquqiga ko'ra talabnoma beradi;

v) sug'urta tashkiloti tomonidan e'tirozning o'rganib chiqilishi va sug'urta to'voni to'lash yoki uni berishni rad etish to'g'risida asoslangan qaror qabul qilinishini;

g) xaridor kafili yoki xorijiy xaridor tomonidan sug'urta tashkilotiga qarzlarning to'lanishi.

Risklarni qoplash sug'urta tashkiloti tomonidan so'mlarda yoki har qanday erkin almashtiriladigan valyutada amalga oshiriladi. Sug'urta to'lovi tuzilgan sug'urta shartnomasiga binoan so'mlarda yoki erkin almashtiriladigan valyutada to'lanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi rezidentlari xorijiy valyutadagi sug'urta to'lovlarini sug'urta tashkilotlari tomonidan xorijiy banklarda ochilgan joriy schyotlarga to'lashlari mumkin. Sug'urta to'lovini to'lash xarajatlari eksport kontraktining qiymatiga kiritiladi. Zarar etkazilgan taqdirda tovon sug'urta tashkiloti tomonidan sug'urta to'lovi to'langan valyutada amalga oshiriladi.

Sug'urta to'lovi milliy valyutada to'langanda tovon sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan xorijiy valyutaning to'lov kunidagi rasmiy kurs bo'yicha to'lanadi.

Sug'urta qoplamasi bo'yicha sug'urta to'voni:

a) urush, inqiloblar yoki fuqarolarning g'alayonlari bo'lgan hollarda asosiy sarmoyaga to'g'ridan-to'g'ri ziyon etkazilgani isbotlanganda yoki xorijiy hamkor 10 oy majburan bekor turgan taqdirda;

b) mulk ekspropriatsiya qilingan taqdirda hodisa yuz bergan sanadan 10 oydan keyin;

v) ma'murlar tomonidan pul o'tkazishga cheklashlar joriy etilganda b oy mobaynida valyutani repatriatsiya qilishning imkoniyati bo'lmagan taqdirda;

g) kontrakt munosabatlariga xorijiy hamkor ma'murlari aralashgan taqdirda ma'murlar aralashuvi yuridik tan olingan sanadan boshlab 3 oy o'tgandan keyin;

d) O'zbekistonlik investorlarga nisbatan kamsituvchi tycra ega bo'lgan yangi qonun-qoidalar joriy etilgan taqdirda joriy etilgan yangi qonun-qoidalarining kamsituvchi tusdaligi xalqaro e'tirof etilgan sanadan boshlab 3 oydan keyin;

e) xorijiy xaridordan va xorijiy xaridor bankidan belgilangan to'lov kunidan boshlab 3 oy o'ggandan keyin kutilayotgan to'lovlar olinmagan taqdirda;

j) xorijiy xaridor va (yoki) xorijiy xaridor banki bankrotlikka uchragan taqdirda ularning bankrotligi e'tirof etilganligining isboti taqdim etilgandan keyin 30 kun mobaynida to'lanadi.

Sug'urta shartnomalarida sug'urta to'voni to'lashning boshqa muddatlari belgilanishi mumkin.

Xulosa qilib ta'kidlaganda, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda yuzaga keladigan risklarni sug'urta qilishni takomillashtirish yo'llaridan biri eksport kontraktlari bo'yicha xo'ujalik yurituvchi sub'ektlar va banklarning majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishi hisoblanadi. Bunda siyosiy risklardan sug'urta qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

3.2 Iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarni kompleks sug'urta himoyasini rivojlantirish

Investitsion loyihalarni amalga oshirishda turli risklar, xususan, moliyaviy, siyosiy, tadbirkorlik risklari yuzaga kelishini, biz oldingi paragraflarda qayd etib o'tganmiz. Ana shu risklarni sodir bo'lishi natijasida invetorlarning manfaatiga etkazilgan zararlarni qoplashda sug'urta muhim vosita hisoblanadi. Odatda, investitsion loyihalarni kompleks sug'urta himoyasiga olish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Investorning pul mablag'larini joylashtirishda yuzaga keladigan moliyaviy risklar.

- Investitsion loyiha asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish korxonasining mulkiy va tadbirkorlik risklari.

- Tayyor mahsulotni sotishda paydo bo'ladigan risklar.

Birinchi toifadagi risklarni sug'urta qilish kredit risklari va garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urta qilish orqali boshqarish mumkin.

Investitsion loyiha asosida moliyalashtirilayotgan ob'ektlarning mol-mulkini sug'urtalash sug'urta tashkilotlari tomonidan "Sug'urta faoliyati klassifikatori"ga muvofiq, umumiy sug'urta tarmog'ining 8-klassi - "Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish"da qayd etilgan shartlarda, ya'ni yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari asosida amalga oshiriladi. SHuningdek, mazkur klassifikatorning 9-klassi ham mol-mulklarni sug'urta qilishga oid bo'lib, u "Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish" deb ataladi. 9-klassning mazmuni 8-klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jamidan iborat.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, investitsion loyiha asosida qurilayotgan ob'ektlarning mol-mulkini sug'urta qilish huquqiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 8 va 9-klasslar bo'yicha litsenziya olgan barcha sug'urta tashkilotlari haqlidir. Investitsion loyiha asosida qurilayotgan korxonalarining mol-mulkini sug'urta qilish sug'urtalovchilar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

Sug'urta shartnomasi - tomonlarning aniq yuridik va moliyaviy munosabatlarini belgilab beruvchi hujjatdir. SHartnomada franshiza qo'llanilishi mumkin. Franshiza- korxona ko'rgan zararining muayyan qismi bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tashkiloti ana shu qism doirasida javobgar

bo'lmaydi va u to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta qoplamasidan chegirib tashlanadi.

Sug'urtalovchi investitsion loyiha asosida ishlayotgan korxonaga tegishli mol-mulklarni yong'in, zilzila, toshqin, suv bosishi, ko'chki, bo'ron, er cho'kishi, ichki sanitariya texnikasi tizimlari buzilishi natijasida to'liq yoki qisman nobud bo'lganda sug'urta qoplamasini, sug'urtalanuvchi bo'lgan korxona esa sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lash va shartnomaning boshqa shartlarini bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Mana shu qayd etilgan holatlar sug'urta tashkiloti va korxona o'rtasida mol-mulkni sug'urtalash bo'yicha tuzilgan shartnomaning predmetini tashkil etadi.

Sug'urtalovchining majburiyatlari sug'urta mukofoti sug'urtalovchining hisob-kitob raqamiga kelib tushgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. So'ng sug'urta polisi sug'urtalanuvchiga shartnomada ko'rsatilgan muddat ichida beriladi. Investitsion loyiha ob'ekti hamda sug'urtalovchi o'rtasida tuzilgan sug'urta shartnomasida tomonlarning huquq va majburiyatlari aks ettiriladi.

Sug'urtalanuvchi bo'lgan investitsiya mablag'lari asosida ishlayotgan korxona majburiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Sug'urta ob'ektini ko'zdan kechirish uchun imkoniyat yaratib berish;
- Sug'urta mukofotlarini o'z vaqtida to'lash;
- SHartnoma tuzilayotganda sug'urtalovchiga sug'urta tavakkalchiligini baholash uchun ahamiyat kasb etuvchi o'ziga ma'lum barcha holatlar haqida, shuningdek mazkur sug'urta ob'ekti bo'yicha tuzilgan yoki tuzilajak hamma sug'urta shartnomalari to'g'risida ma'lumot berish;
- Sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalangan mulkiga zarar etkazilishining oldini olish va zararni kamaytirish uchun zarur choralarni ko'rish va sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi haqida sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddatlarda xabar berish.

Investitsion loyiha asosida qurilayotgan korxona sug'urtalangan mulkni ko'zdan kechirish uchun sug'urtalovchiga taqdim qilishi yoki mulkning barcha zararlangan qismlarining fotosurati yoki video suratini oldirishi va tiklash ishlari

boshlangunga qadar o'zi qiladigan ishlarni sug'urtalovchi bilan kelishib olishi kerak.

Investitsion loyiha asosida faoliyat yuritayotgan korxona quyidagi huquqlarga ega bo'lishi mumkin:

- butun mulkni va ayrim ob'ektlarni tomonlarning qo'shimcha kelishuvi yoki yangi sug'urta shartnomasi shartlari asosida qo'shimcha sug'urtalash;
- sug'urta hodisasi sodir bo'lganda mustaqil ekspertiza o'tkazilishini talab qilish;
- sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urtalovchidan sug'urta masalalari borasida maslahatlar olish;
- sug'urtalovchi bilan kelishgan holda sug'urta shartnomasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish.

Korxonalar oldida sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tashkiloti quyidagi majburiyatlarga ega bo'ladi:

- shartnomada belgilangan muddatlarda sug'urta polisini berish va shartnoma tuzishda asoslanilgan sug'urtalash qoidalari bilan tanishtirish;
- sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisalari yuz berganda sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi haqidagi dalolatnoma asosida sug'urta qoplamasi to'lash;
- sug'urtalanuvchi bilan bo'ladigan munosabatlarda mahfiylikni ta'minlash.

SHu bilan bir qatorda sug'urta tashkilotining huquqlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- agar sug'urta hodisasi:
 - a) sug'urtalovchining sug'urta hodisasini keltirib chiqarish uchum ataylab qilgan hatti-harakatlari natijasida yuz bergan bo'lsa;
 - b) sug'urtalanuvchi tavakkalchilikdagi jiddiy o'zgarishlar haqida sug'urtalovchini boxabar qilgan bo'lmasa;
 - v) sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi to'g'risida sug'urtalovchiga xabar bermagan yoki etkazilgan zarar tafsilotlari, turi va miqdorini aniqlashda sug'urtalovchi yoxud uning vakili ishtirok etishiga to'sqinlik qilgan bo'lsa;

g) sug'urtalanuvchi zararni aniqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etmagan bo'lsa, sug'urta to'voni to'lashni rad etish;

- sug'urta shartnomasining muddati mobaynida sug'urtalangan mulkning ahvoli va qiymatini, shuningdek sug'urtalanuvchi o'z mulki haqida ma'lum qilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish;

- sug'urtalanuvchidan sug'urta hodisasi haqida xabar kelishini kutib o'tirmasdan, sug'urta hodisasi etkazgan zararni ko'zdan kechirish va baholashga kirishish;

- sug'urta hodisasi yuz berish xavfining darajasini ifodalovchi qo'shimcha hujjatlarni talab qilib olish.

Sug'urtalanuvchi bo'lgan korxona sug'urta mukofotini shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lamaganda shartnoma yuridik kuchini yo'qotishi mumkin. Agar sug'urtalangan mulkning yo'qolishi yoki zararlanishiga quyidagilar sabab bo'lsa sug'urta tashkiloti sug'urta javobgarligidan ozod etilishi mumkin:

a) sug'urtalanuvchining majburiyatlari kuchga kirgunga qadar mulkda mavjud bo'lgan hamda sug'urtalanuvchi yoki uning vakillariga ma'lum bo'lgan kamchilik va nuqsonlar;

b) sug'urtalangan mulkdan foydalanish qoidalarining sug'urtalanuvchi yoki uning vakillari tomonidan buzilishi natijasida zarar etkazilishi;

v) sug'urtalanuvchining yoki uning shartnoma bo'yicha sug'urtalangan mulk ishonib topshirilishi mumkin bo'lgan xodimlaridan, vakillaridan yoki boshqa shaxslardan birining ehtiyotsizligi, vijdotsizligi, nosamimiyligi, shuningdek mulkka mulkdorlik yoxud egalik huquqining qalloblik yo'li bilan boshqa shaxsga o'tkazilishi;

g) doimiy ta'sir ko'rsatuvchi foydalanish omillari (eskirish, zanglab chirish) va ob-havo omillari ta'sirida yoxud sug'urtalangan narsalardan foydalanmaslik oqibatida asta-sekin zararlanish;

d) sug'urtalanuvchi yoki uning vakillari tomonidan yong'in xavfsizligi qoidalarining buzilishi;

e) engil alanganadigan modda va materiallarni saqlash yoki ulardan foydalanish qoidalarining buzilishi;

z) sug'urtalanuvchi zararlangan narsalarni yoki ularning qoldiqlarini sug'urtalovchiga ko'rsatishdan bosh tortgan taqdirda, butunlay yo'q bo'lib ketishi mumkin bo'lgan narsalar bundan mustasnodir;

i) urush yoki urush harakatlari (urush e'lon qilingani-qilinmaganidan qati nazar), g'alayon, inqilob, qo'zg'olon, isyon, fitna, ish tashlash, noqonuniy yo'l bilan hokimiyatni qo'lga olish, suiqasd, ko'poruvchilik harakati, amalda yoki qonuniy mavjud bo'lgan hukumatning yoki biror hokimiyat organining farmoyishi bilan musodara qilish, rekvizitsiya, buzish yoki zararlantirish, yadro reaksiyasi, yadro nurlanishi yoxud radioaktiv zararlanish.

Ichki sanitariya texnikasi tizimlari buzilganda quyidagi hollarda sug'urta tashkiloti etkazilgan zarar uchun javob bermaydi:

a) agar falokat sug'urtalanuvchining ehtiyotsizligi yoki noshud hatti-harakatlari tufayli yuz bergan bo'lsa;

b) basharti falokat uchinchi shaxslarning ataylab qilgan yoki ataylab qilmagan xatti-harakatlari oqibatida yuz bergan bo'lsa;

Sug'urta qoplamasi sug'urtalanuvchining zararni qoplash to'g'risidagi yozma arizasi, shuningdek vakolatli organlardan olingan tegishli hujjatlar asosida to'lanadi. Bunday hujjatlarning taqdim etilmasligi sug'urtalovchiga ushbu hujjatlar bilan tasdiqlanmagan zarar uchun tovon to'lashni rad etish huquqini beradi.

Sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lgani haqida ariza bergach, komissiya tuzilib, uning tarkibiga sug'urtalanuvchining, sug'urtalovchining, zarur hollarda esa vakolatli tashkilotlarning ham vakillari kiritiladi.

Komissiya muayyan muhlat ichida zararlanish sabablari va mikdorini aniqlaydi. Komissiya sug'urta hodisasini e'tirof ettan taqdirda yo'qotish va zararlar mikdori, shuningdek to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta qoplamasining mikdori aniqlanadi. Tomonlar buni dalolatnomada qayd etadilar.

Mazkur dalolatnoma sug'urtalanuvchiga sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovonni to'lanishi uchun asos bo'ladi.

Zarar sabablari va mikdori xususida tomonlar o'rtasida nizolar paydo bo'lgan hollarda mustaqil ekspertiza o'tkazilishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi zararni qoplash haqidagi arizasida quyidagilarni ko'rsatishi shart:

- sug'urta hodisasi yuz bergan sana va uning tavsifi;

- sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urtalanuvchi qilgan ishlar;

- zarar miqdori va sug'urtalanuvchi da'vo qilayotgan sug'urta tovonining miqdori. Bunda tegishli ro'yxat va summa ko'rsatilishi kerak;

- zararni qoplash uchun uchinchi shaxslardan olingan tovon miqdori.

Mabodo zarar to'liq qoplangan bo'lsa yoki sud qaroriga ko'ra zarar aybdor shaxs tomonidan qoplanadigan bo'lsa sug'urtalanuvchi sug'urta tovonni olish huquqidan mahrum bo'ladi.

Quyidagi hollarda sug'urta tovonni to'lanmaydi:

- agar sug'urtalanuvchi zarar etkazilishiga olib keluvchi hatti-harakatlarni ataylab yoki qo'pol ehtiyotsizligi tufayli sodir etgan yoki ularga yo'l qo'ygan bo'lsa;

- basharti zarar kelib chiqishiga olib kelgan holatlar huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tekshirilayotgan bo'lsa, tekshiruv tamom bo'lgunga qadar.

Mabodo sug'urtalanuvchi yoki naf oluvchi shaxs zarar uchun aybdor yoki uchinchi shaxslardan tovon olgan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta shartlariga ko'ra to'lanishi lozim bo'lgan pul bilan aybdor yoxud uchinchi shaxslardan olingan pul o'rtasidagi farqning o'zini to'laydi.

SHartnoma imzolagandan so'ng tavakkalchilik darajasida ro'y bergan va sug'urta hodisasi yuz berish ehtimolini oshiradigan barcha o'zgarishlar sug'urtalovchiga sug'urta shartlarini o'zgartirish hamda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanishi talab qilish huquqini beradi. Sug'urtalanuvchi qo'shimcha

sugʻurta mukofotini toʻlashdan bosh tortgan taqdirda mazkur shartnoma yuridik kuchini yoʻqotadi, toʻlangan sugʻurta mukofoti esa qaytarib berilmaydi.

SHartnomada kelishilgan zararlarni qoplash uchun sugʻurtalovchi tomonidan amalga oshirilgan har bir toʻlov majburiyatlar chegarasini ana shu toʻlov miqdorida, ammo agar masʼuliyat chegarasini qayta tiklash uchun qoʻshimcha sugʻurta mukofoti toʻlanmasa, dalolatnomada qayd etilgan zarar miqdoridan koʻp boʻlmagan hajmda kamaytiradi.

SHartnoma tomonlar unda koʻrsatilgan majburiyatlarini bajarmay qoʻygunlariga qadar kuchda boʻladi.

Tomonlardan birining kamida 30 kun oldin beriladigan yozma arizasiga binoan shartnoma istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

Agar sugʻurtalanuvchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilishini maʼlum qilsa, sugʻurta mukofoti unga qaytarilmaydi.

Sugʻurta shartnomasi bekor qilinishini sugʻurtalovchi talab etgan taqdirda:

a) sugʻurtalanuvchiga sugʻurta mukofoti muddati tamom boʻlmagan davrga mutanosib miqdorda qaytariladi, bunda oʻtgan davrda qilingan xarajatlar sugʻurta mukofotidan ushlab qolinadi;

b) basharti sugʻurta shartnomasi bekor qilinishining talab etilishiga ushbu shartnomada kelishilgan shartlarning sugʻurtalanuvchi tomonidan buzilishi sabab boʻlsa, faqat sugʻurta mukofoti muddati tamom boʻlmagan davrga mutanosib miqdorda qaytariladi.

Sugʻurta toʻvoni toʻlash haqida dalolatnoma tuzilgandan keyin sugʻurtalanuvchining zarar etkazilishi uchun javobgar shaxslarga nisbatan boʻlgan huquqlari toʻlangan pul miqdorida sugʻurtalovchiga oʻtadi. Bunda sugʻurtalanuvchi aybdor shaxslardan talab qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan hujjatlarni sugʻurtalovchiga berishi shart.

Sugʻurtalanuvchi zarar etkazgan shaxsga boʻlgan daʼvosidan yoki unga nisbatan boʻlgan talablarning amalga oshirilishini taʼminlovchi huquqlaridan voz kechganda, shuningdek regress talabni qoʻyish uchun zarur boʻladigan

hujjatlarni sug'urtalovchiga berishdan bosh tortganda sug'urtalovchi sug'urta to'lovni to'lashdan ozod bo'ladi.

SHartnomaga kiritiladigan hamma qo'shimcha va o'zgartirishlar, shuningdek prolongatsiya, bekor qilish yoki to'xtatish tomonlarning roziligi bilan o'zaro xabar berilgan holda yozma ravishda amalga oshirilmog'i darkor.

Sug'urta shartnomasidan kelib chiquvchi barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlarning muzokara olib borishi yo'li bilan hal etiladi, kelishuvga erishib bo'lmagan taqdirda esa tegishli muddat ichida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qarab chiqish uchun xo'jalik sudiga oshiriladi.

XULOSA

Biz ushbu magistrlik dissertatsiyasini yozish natijasida quyidagi xulosalarga keldik va tegishli takliflarni ishlab chiqdik:

1. O'zbekiston Respublikasida investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat:

- Davlat byudjeti mablag'lari.
- Tijorat banklari kreditlari.
- Korxonani o'z mablag'lari.
- Boshqa mablag'lar.

2. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda risklarni boshqarish yoki boshqacha aytganda risk-menejment bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

- Riskni tahlil etish.
- Risklarni taqqoslama samaradorligini baholashda unga ta'sir etuvchi metodlarni tanlash.

- Qaror qabul qilish.
- Riskka bevosita ta'sir ko'rsatish.
- Nazorat va boshqaruv jarayoni natijalarini ixchamlashtirish.

3. Investitsion loyihalarni moliyalashda yuzaga keladigan risklarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- Kredit riski.
- Operatsiya riski.
- Huquqiy risk.
- Mamlakat riski.
- Transfert riski.
- Bozor riski.
- Foiz riski.
- Likvidlilik riski.
- Reputatsiya riski.
- Siyosiy risklar.
- Tadbirkorlik risklari.

Mazkur risklarni sug'urtalash investitsion loyihalarni moliyalash chog'ida paydo bo'lgan risklarni sodir bo'lishi natijasida etkazilgan zararlarni qoplashning samarali vositasi hisoblanadi.

4. Investitsion loyihalarni amalga oshirishda uni siyosiy risklardan sug'urtalash katta ahamiyatga ega. Chunki, siyosiy risklarni yuz berishi oqibatida investor loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirgan pul mablag'laridan butunlay ajralishi mumkin. Siyosiy risklar jumlasiga harbiy harakatlar, ish tashlashlar, fuqarolar g'alayonlari, davlat hokimiyatini hamda qonunchilik hujjatlarini o'zgarishi kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin. Bizning respublikamizda investitsion loyihalarni amalga oshirish chog'ida ehtimol tutilgan siyosiy risklarni sug'urtalash ishlari bilan "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi shug'ullanadi.

5. Biz o'z magistrlik dissertatsiya ishimizda investitsion loyihalarni ishlab chiqish va uni to'liq amalga oshirishgacha bo'lgan jarayon bir qancha bosqichlarni o'z ichiga olishini va unda turli risklar mavjud ekanligini e'tirof etdik. Sug'urta ana shu jarayonda yuzaga keladigan risklardan himoyalashning samarali vositasi hisoblanadi. SHu bois investitsion loyihalarni amalga oshirishda sug'urta mexanizmidan to'liq foydalanishni taklif etamiz.

6. Ilmiy izlanishlar xalqaro amaliyotda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda paydo bo'ladigan risklarni sug'urtalashga ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari mavjud. Bunga Butunjahon bankining MIGA (investitsiyalar bo'yicha ko'p tomonlama agentlik) tashkilotini, Germaniyaning "GERMES" sug'urta agentligini va Fransiyadagi "KOFASE" sug'urta kompaniyasini keltirish mumkin.

7. Dissertatsiya natijalari shuni ko'rsatdiki, investitsion loyihalarni moliyalashtirish faoliyatida mavjud risklarni sug'urta mexanizmi yordamida kamaytirish va bartaraf etish borasidagi amaliy chora-tadbirlar ko'ngildagidek emas. Bunga asosiy sabab sifatida investitsion loyihalarni moliyalashtirish risklarini sug'urtalash bo'yicha maxsus dasturni ishlab chiqilmaganligidir. Biz bunday dasturni ishlab chiqishni taklif etamiz va unda quyidagi investitsion

loyihalarni moliyalashtirishda mavjud risklarini sug'urtaviy himoyaga olishni taklif etamiz:

- * Kredit riski sug'urtasi.
- * Foiz riski sug'urtasi.
- * Valyuta riski sug'urtasi.
- * Loyihani moliyalashtirish bilan bog'liq risklarni sug'urtasi.
- * Siyosiy risklar sug'urtasi.
- * Operatsiya risklarini sug'urtasi.
- * Bank xodimlarining uchinchi shaxslar oldidagi kasbiy javobgarligini sug'urtasi.
- * Bank xodimlarining hayotini baxtsiz hodisalardan ehtiyoti shart sug'urtasi.
- * Tijorat banklarining lizing operatsiyalarini sug'urtasi.
- * Tijorat banklarining mol-mulkini sug'urtasi.
- * Garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urtasi.
- * Bankning inkassatorlik operatsiyalarini sug'urtasi.
- * Bank xizmatchisining qalloblik hatti-harakatlari natijasida ko'rilgan zararni sug'urta qilish.
- * Bank komp'yuterlari va dasturlarini komp'yuter qallobliklaridan sug'urta qilish.

YUqorida qayd etilgan investitsion risklarni sug'urtaviy himoyaga olish bo'yicha dastur har bir moliyalashtiruvchi tashkilotning xususiyatlari va ularning takliflarini inobatga olgan holda tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi-T.:O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003.-496 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" Qonuni.--// «Xalq so'zi» gazetasi, 2008 yil 22 aprel.

3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida». - T.: 2002 y., 5 aprel.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 28 may.
4. O'zbekiston Respublikasining “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida» Qonuni.T.:2007y., 15 sentbyar.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2007 yil 15 sentyabr.
5. O'zbekiston Respublikasining “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida» Qonuni. T.: 2009 y., 23 dekabr.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2009 yil 23 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasining “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida” Qonuni. “Xalq so'zi”, 2008 yil 23 dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-618-son Qarori.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2007 yil 11 aprel.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi “Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-872-sonli qarori. “Xalq so'zi”, 2008 yil 22 may.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011 — 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida” 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-son Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2011 yil 31 maydagi PQ-1544-son Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 31 yanvardagi «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3022-son Farmoni.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 1 fevral.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 286-sonli Qarori.

1998 yil 8 iyul.//O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari, 4-ilova, - T.: 2000.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli “Sug’urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori.// O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Qarorlari to’plami, 2002, 11.

14. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining “Sug’urtalovchining sug’urta zaxiralari to’g’risidagi Nizomni tasdiqlash to’g’risida” 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug’i. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan davlat ro’yxatidan o’tkazilgan. – T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2008 y., 52-son.

15. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 12 mayda 1806-son bilan ro’yxatga olingan va Moliya vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Sug’urtalovchilar va qayta sug’urtalovchilarning to’lov qobiliyati to’g’risida Nizom».

16. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 3 iyuldagi “Sug’urtalovchi va qayta sug’urtalovchining investitsiya faoliyati to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 68-son buyrug’iga asosan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 16 iyulda 1982-son bilan davlat ro’yxatidan o’tkazilgan.

17. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo’mitasi huzuridagi qimmatli qog’ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazining qarori. “Sug’urtalovchilar tomonidan qimmatli qog’ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatning amalga oshirilish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 2 dekabrda 1876-son bilan davlat ro’yxatidan o’tkazildi.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013 yilning asosiy yakunlari va 2014 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning

ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi./Xalq so'zi, 2014 yil 18 yanvar.

19. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir". – T.: O'zbekiston, 2011. T.19. – 98 bet.

20. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari/I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.

21. Arxipov A.P., V.B. Gomellya, D.S. Tulenty. Straxovanie. Sovremennyy kurs: uchebnik-2-e izd, pererab. –M.: Finansy i statistika, INFRA-M, 2008 g. - 448 s.

22. Abramov V.YU. Straxovanie. Uchebnoe posobie. – M.: Volters Kluver, 2007. – s. 402.

23. Adamchuk N. Ocherki teorii straxovaniya: retrospektivniy analiz razvitiya. – M.: Ankil, 2009. – s.282.

24. Alekseev A. Straxovanie: uchebnoe posobie. – M.: Feniks, 2008. – s.316.

25. A.Arhipov. Anderrayting v straxovanii. Teoreticheskiy kurs i praktikum: uchebnoe posobie. – M.: YUNITI-DANA, 2009. –s.400.

26. Bakirov A. Formirovanie i razvitie rynka straxovoykh uslug. – M.: Finansy i statistika, 2007. – s.380.

27. Baymuratov T.M. Sugurta faoliyatida risklar transferi. Monografiya. – T.: IQTISOD MOLIYA, 2005. – 196 b.

28. Baxramova G. Straxovanie – neot'emlemaya chast vedeniya biznesa// jurnal "Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistana", 4/2009, str.58-59.

18. Veselovskiy M. Straxovoy servis: Uchebnoe posobie. – M.: "INFRA – M", 2009 g.

29. Gavrilova S. Straxovanie: Uchebnoe posobie. – M.: "Eksmo", 2010 g. – 304 str.

30. Gvozdenko A. Straxovanie: ucheb.posobie. – M.: Prospekt, 2008. – s.238.

31. Gomellya V. Straxovanie: ucheb.posobie. – M.: Market DS, 2006. – s.200.
32. Godin A.M., Frumina S.V. Straxovanie: Uchebnik. - M.: «Dashkov I.K.», 2009 – 480 st.
33. Denisova I. Straxovanie. Uchebnik. – M.: IKS “MarT”, 2009 g. - 240 str.
34. Iminov T.K., Xasanov F.R. Osvoenie regionov – vajneyshiy faktor razvitiya straxovogo rynka// jurnal “Ekonomicheskij vestnik Uzbekistana”, 4/2009, str.67-68.
35. Ikromov O.G., Gaybullaev B. Remni finansovoy bezopasnosti (obzor straxovogo rynka–2008)//Ekonomicheskoe obozrenie, №5-6, 2009 g. S.86-91.
36. Ikromov O.G. Straxovanie: vchera, segodnya, zavtra// Narodnoe slovo, 3 iyulya 2009 g. S.1-2.
37. Ikromov O.G’., Shennaev X.M. O’zbekistonda sug’urta xizmatlari bozori: rivojlanish tendentsiyalari va istiqbollari.// “Moliya” jurnali, 2008 yil 1-son.
38. Ikromov O.G. Moliya bozorining qudratli vositasi.// “O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” jurnali, 4/2009, 37-41 betlar.
39. Korotkova YU.E. Kratkiy kurs po straxovaniyu. Uchebnoe posobie. – M.: Okey-kniga, 2010. – s.240.
40. Kuznetsova I. Straxovanie jizni imushchestva grajdan. Prakticheskoe posobie. – M.: Dashkov i K, 2010. –s.400.
41. Nikulina N. Straxovoy marketing. Uchebnoe posobie. – M.: “YUNITI – DANA ”, 2009 g. – 503 str.
42. Nikulina N.N. Straxovanie. Teoriya i praktika: ucheb.posobie dlya studentov vuzov, obuchayushixsya po spetsialnostyam: «Finansы i kredit», «Buxgalterskiy uchet, analiz i audit»: 2-e izd, pererab. - M.: YUNITI-DANA, 2008 g. - 511 s.
43. Nikulina N.N. Straxovoy marketing: ucheb.posobie dlya studentov vuzov, obuchayushixsya po spetsialnosti «Finansы i kredit» - M.: YUNITI-DANA, 2009,-503 s.
44. Nurmuhamedov I. “O’zagrosug’urta”: salmoqli odimlar.// “O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” jurnali, 4/2009, 46-47 betlar.

45. Obzor straxovogo rinka Uzbekistana//Biznes-vestnik Vostoka, №3-4 13 yanvarya 2011 g. – str.9.
46. Основы straxovoy deyatel'nosti: Uchebnik./ Otv. red. Prof. T.A. Fedorova. - SPb.:Magistr , 2008.-768 s.
47. Ochilov I. Sug'urta hisobi va hisoboti. O'quv qullanma. – T.: IQTISOD MOLIYA, 2010. – 310 b.
48. Perspektivy razvitiya vzaimnogo straxovaniya v Uzbekistane. Analiticheskaya zapiska. – T.: Proekt PROON “Reforma gosudarstvennykh finansov v Uzbekistane ”, 2010 g.
49. Рыбин В. Основы straxovaniya. Uchebnoe posobie.–M.:KNORUS.– s. 256.
50. Samarova E. Straxovaya matematika: Prakticheskiy kurs.Uchebnoe posobie. – M.: Infra-M, 2009. – s.361.
51. Sovremennnoe sostoyanie, problemy i perspektivy razvitiya straxovaniya ot katastroficheskikh prirodnykh riskov v Uzbekistane. Analiticheskaya zapiska. – T.: Proekt: “Reforma gosudarstvennykh finansov v Uzbekistane”, 2010. s.210.
52. Straxovanie.Uchebnik.Pod red.T.A.Fedorovoy.–M.:Magistr2009–s.285.
53. Straxovanie: ekonomika, organizatsiya, upravlenie.Uchebnik. – M.: Ekonomika, 2010. – s.256.
54. Serbinovskiy B. Straxovoe delo. Uchebnoe posobie. – Rostov n/D: “Feniks ”, 2010 g. – 476 str.
55. Straxovanie: ekonomika, organizatsiya, upravlenie. Uchebnik. – M.: “Ekonomika”, 2010 g. - 751 str.
56. Straxovanie: uchebnik dlya studentov, obuchayuyshisya po spetsialnostyam “Finansy i kredit”, “Buxgalterskiy uchët, analiz i audit” / pod. red.V.V.SHaxova,YU.T.Axvlediani.–M.:“YUNITI–DANA”, 2010 g.- 511 str.
57. Sug'urta agentlari uchun qo'llanma.– T.:“PRINTXPRESS”,2010y.– 208 bet.
58. “Uzagrosugurta”: straxovaya zashita po vsemu Uzbekistanu//Biznes-vestnik Vostoka, №30, 14 aprelya 2011 g.-str.5.
59. Umarov S. O'zbekistonda sug'urta faoliyati rivojlanishini boshqarish. Monografiya. – T.: Fan, 2011. – 238 b.

60. Filin S. Straxovanie i xedjirovanie riskov investitsionnoy deyatelnosti. – M.: Ankil, 2009. –s.216.
61. SHaxova V.V., Axvlediani YU.T. Straxovanie: uchebnik dlya studentov, obuchayushixsya po spetsialnostyam "Finansy i kredit", "Buxgalterskiy uchet, analiz i audit". – M.: YUNITI-DANA, 2009. – s.248.
62. SHaxov V. Straxovanie: Uchebnik. – M.: YUNITI-DANA, 2008. – s.295.
63. YUldashev R. Ocherki teorii straxovaniya: retrospektivniy analiz razvitiya. – M.: ANKIL, 2009. s.244.
64. Statisticheskoe obozrenie Uzbekistana// Goskomstat, 2012 g.
65. Xo'jaev Y. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urta.O'quv qo'llanma.-T.:Soliq akademiyasi, 2005.
66. Shennaev X.M.,Sug'urta agentlari uchun qo'llanma.O'quv qo'llanma.-T.:info COM.UZMChJ nashriyoti, 2010y.
67. Shennaev X.M., Kenjaev I.G'. Chet mamlakatlar sug'urtasi. O'quv qo'llanma. T.,2012.
68. Shennaev X.M., Xalikulova G.T., Tashqi iqtisodi faoliyatda sug'urta. O'quv qo'llanma. T.,2012.
69. Shennaev X.M., Xalikulova G.T., Sug'urta marketingi. O'quv qo'llanma. T.,2012.
- 70 .Shennaev X.M., O'zbekiston sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. T.,2013y.

Internet saytlari

71. www.mif.uz.
72. www.sug'urta.uz.
73. www.UzReport.com.
74. www.uzbekinvest.uz.
75. www.agros.uz.
76. www.kafolat.uz.
77. www.kapitalsug'urta.uz.
78. www.alskom.uz.
79. www.allinsurance.ru.

80. www.expert.ru.

81 . www.znay.ru.